جديد

2026-yil 30-yanvar
№ 5 (109)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

AZALIY VA ABADIY DO‘STLIK

HAMKORLIKDA YANGI BOSQICH



Bugun O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida mustahkam hamkorlik shakllanganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an o‘rtasidagi samimiy do‘stlik va yuksak darajadagi siyosiy ishonch ikki mamlakat aloqalarini sifat jihatidan yangi bosqichga – Keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga olib chiqdi.


O‘zbekiston Prezidentining kuni kecha Turkiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ushbu do‘stlik va sheriklik solnomasida yangi sahifa ochdi. Tashrif Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining navbatdagi yig‘ilishi bilan ahamiyatli bo‘ldi. Ushbu tashrif doirasida imzolangan hujjatlar va kelishuvlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilaydi, balki mintaqaviy xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalarida ham ikki tomonlama pozitsiyalarni mustahkamlaydi.

O‘zbekiston-Turkiya aloqalarining huquqiy asosi ikki davlat o‘rtasidagi Abadiy do‘stlik va hamkorlik shartnomasi, shuningdek, ko‘p qirrali sheriklikni kengaytirishga qaratilgan 150 dan ziyod bitimdir. Bundan tashqari, davlat rahbarlari raisligidagi Strategik sheriklik bo‘yicha Oliy kengash, tashqi ishlar vazirlari darajasidagi Qo‘shma Strategik rejalashtirish guruhi, shuningdek, Parlamentlararo hamkorlik guruhlari faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.

(Davomi 2-sahifada).

MILLAT FIDOYILARI

“BIR O‘CHIB SO‘NIB... YANA YONISH BOR”



XIX asr oxiri – XX asr boshlariga kelib Turkiston ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish sur’ati jihatidan Yevropa davlatlaridan yaqqol ortda qolayotgani anglashila boshlandi. Sanoat, fan va ta’lim sohasidagi bu tafovut mahalliy ziyoli qatlam orasida jiddiy mulohazalarni keltirib chiqardi. O‘lkada an’anaviy musulmon ta’lim tizimini yangilash, Yevropa ilm-fani yutuqlarini o‘zlashtirish va ularni amaliyotga joriy etish zarurligi haqida bong uruvchi taraqqiyparvarlar guruhi shakllandi.

Jadid ziyolilari bu holda yoshlarni xorijda o‘qitishni eng maqbul yo‘l bilib, Yevropa mamlakatlarida ilm-fan va texnika sohasida tajriba egallab jamiyatni taraqqiy ettirish, milliy uyg‘onish va erk g‘oyalarini hayotga tatbiq etishni maqsad qildilar.

(Davomi 7-sahifada).

ASR HATLAGAN ASAR

“O‘tkan kunlar” fors tilida



Tarjima – millatlar o‘rtasidagi madaniy va adabiy-ma’rifiy aloqalarni ta’minlaydigan asosiy vosita hisoblanadi. U orqali turli xalqlarning ilmiy va adabiy merosi umuminsoniy boylikka aylanib boradi. Boshqacha qilib aytganda, tarjima bir jamiyatning tafakkuri, dunyoqarashi, tarixiy tajribasi hamda ma’naviy qadriyatlarini boshqa jamiyatga yetkazishning samarali vositasidir.

(Davomi 6-sahifada).

VATAN MANZUMASI

MENING VATANIM

Yuz yil umr ko‘rsam, yuz yil she’r yozsam,
Yuz yil ta’rifingni aytsam muttasil.
Baribir, sevgili yorin rasmini
Chizmoqqa munosib rang topolmayin
Chamanda tentirab yurgan rassomday,

Sening tasviringga so‘z axtararman,
So‘zlar sarasidan shu bugungiday.

Yuz yilgi she’rimni
Yig‘salar hamki,
Bo‘lmaydi dildagi sevgimday asil,
Ey, mening Vatanim,
mening Vatanim!

Saida ZUNNUNOVA

SHU SONDA:

ZIYOLI KIM?

(5-sahifada o‘qing).

JARAYON

“AYOL UYG‘ONMASA, UYG‘ONMAS MILLAT”

O‘zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi huzuridagi “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti bo‘lim boshlig‘i, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi Farida ABDURAHIMOVA bilan suhbat

Farida opa, bu yil yurtimizda “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili” deb e’lon qilindi. Bu ezgu maqsadga erishishda, albatta, xotin-qizlarning ishtiroki g‘oyat muhim. Suhbatimizni Yangi O‘zbekiston ayoli haqidagi mulohazalardan boshlasak.

– Bugun Yangi O‘zbekistonni barpo etish, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdek tarixiy jarayonlarda yashayapmiz. Bunda Ayol ma’naviyati, ma’rifati, uning jamiyatda tutgan o‘rni nihoyatda muhim.



(Davomi 3-sahifada).

FAKT

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasiga tashrifi doirasida Xatay viloyatining Arsuz tumanida “O‘zbekiston” turar-joy majmuasining ochilishi va Istanbulda o‘zbek maktabining qurilishini boshlashga bag‘ishlangan marosim bo‘lib o‘tdi.
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan Azizbek Israilovich Ikromov O‘zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vaziri, Bahodir Hamidovich Tashmatov O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi qo‘mondoni lavozimiga tayinlandi.
- Turkiyada uzluksiz 3 yil yashab kelgan o‘zbekistonliklar 1-martdan boshlab ishlash huquqini beruvchi ruxsatnoma olishi mumkin bo‘ldi.

ILM YO‘LI



ZARRANING ZALVORI


Bu gal an’anamizdan biroz chekingan holda, akademiklar bilan emas, ilm-fan olamida yosh olimlardan hisoblangan yurtdoshimizni savolga tutdik. Suhbatdoshimiz – fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, O‘zFA U.A.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutining katta ilmiy xodimi Ilyos Abdisaidov.

– “Uglerod nanonaychalarining past haroratdagi sintezi uchun nanokatalizatorlar va ularning xossalari” mavzusida ilmiy ish yoqlabsiz. Ma’lum bo‘lishicha, bu O‘zbekistonda yangi yo‘nalishlardan ekan. Yangi yo‘l ochish doim mashaqqatli bo‘lgan. Sizni bunga nima undadi?

– Uglerod nanonaychalari sohasi yurtimizda nisbatan yangi yo‘nalishlardan biri hisoblanadi va bu soha bilan shug‘ullanuvchilar ham ko‘p emas. Bu amaliy va iqtisodiy jihatdan muhim soha. Shu sababli, bu yo‘nalish nafaqat ilmiy-tadqiqotchilar, balki sanoat vakillari uchun ham talab yuqori bo‘lgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Bizning ishimiz shu kelajak uchun poydevor yaratishga qaratilgan.

(Davomi 2-sahifada).

NAVOIYXONLIK



BIR ASHULA HAQIDA

Alisher Navoiyning “Badoye’ul vasat” devonidagi 615-g‘azal yor hijronidan yurakzada oshiqning dilidan kechayotgan o‘ylar, vahm-iztiroblari tasviriga bag‘ishlangan. Oshiq yorni ko‘zda tutib, “o‘lturgusi” der ekan, uning hajri – qotilvash, visoli – halokangiz ekanini aytadi. O‘tmish adabiyotimizda ko‘p shoirlar bu g‘azaldan ta’sirlanib, ayni vazn va “o‘lturg‘usi” radifida talay g‘azallar bunyod etganlar. Chunonchi, Andalibning bir va Uvaysiyning ikki g‘azali ma’lum.

G‘azal baytlari tabdiliga o‘tamiz:

Bir kun meni ul qotili
majnunshior o‘lturgusi,
Usruk chiqib, javlon qilib,
devonavor o‘lturgusi

(Davomi 4-sahifada).

HAMKORLIKDA YANGI BOSQICH

Boshlanishi 1-sahifada.

Ayni paytda Turkiya O‘zbekistonning eng yirik savdo-iqtisodiy sheriklaridan biriga aylangani e’tiborlidir. Kelgusi yillarda ikki tomonlama savdo hajmini 10 milliard dollarga yetkazish rejalari belgilab olindi. O‘zbekistonga Turkiya investitsiyalari hajmi 70 baravar ko‘payib, qo‘shma korxonalar soni 2 ming 100 tadan oshdi. Strategik hamkorlik ta’lim, tibbiyot, qurilish, to‘qimachilik sanoati, avtomobilsozlik, energetika, fan, texnologiya, madaniyat, raqamli iqtisodiyot va xavfsizlik sohalarida jadal rivojlanmoqda.

Tomonlar Osiyo-Tinch okeani mintaqasi – Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston – Turkmaniston – Ozarbayjon – Gruziya – Turkiya – Yevropa multimodal transport yo‘lagini ilgari surishdan manfaatdor. Uning amalga oshirilishi mamlakatlarimizga tashqi savdo salohiyatini o‘zaro manfaatli asosda sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Xususan, O‘zbekiston hududi orqali tovarlarni tranzit tashish hajmini hozirgi 7-10 million tonnadan 2030-yilda 23 million tonnaga yetkazishda muhim omil bo‘ladi.

Bundan tashqari, rasmiy Anqara Turkiya, Kavkaz, Kaspiy dengizi va Markaziy Osiyo hududlari orqali Xitoyga o‘tadigan O‘rta yo‘lak infratuzilmasi loyihasini faol ravishda ilgari surmoqda. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, “O‘rta yo‘lak” Markaziy Osiyo mamlakatlaridan tovarlar eksport qilinadigan “Shimoliy yo‘lak”ka nisbatan tejamkorroq, u tovarlarning harakatlanish vaqtini uch baravar qisqartiradi. Undan samarali foydalanish bilan mintaqadagi davlatlar yiliga 600 milliard dollarga baholanayotgan Xitoy-Yevropa savdosidan foyda ko‘rishlari mumkin bo‘ladi.

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi aloqalarning yuragi bu ikki qardosh xalqning ma’naviy birligidir. Ta’lim va ilm-fan sohasidagi almashinuvlar, Turkiyaning yetakchi oliygohlari filiallarining yurtimizda ochilishi, shuningdek, madaniyat kunlari va kinofestivallar xalqlarimizni yanada



jipslashtirmoqda. Madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish uchun mustahkam poydevor yaratilgan. Bu yo‘nalishdagi hamkorlikning kengayishi va chuqurlashishi madaniyatlarning o‘zaro boyitilishiga va umumiy madaniy-gumanitar makonning shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Turkiya vakillari Samarqandda o‘tkazib kelinayotgan “Sharq taronalari” xalqaro musiqa festivalida muntazam ravishda ishtirok etadi. “Xiva – turk dunyosining madaniy poytaxti” xalqaro dasturi doirasida Turkiyada Muhammad Xorazmiy haykali o‘rnatildi, yodgorlik majmuasi ochildi. Buxoro davlat tibbiyot institutida Turkiya tibbiyot fanlari universiteti bilan hamkorlikda yangi fakultet tashkil etildi, Toshkentda Turkiya iqtisodiyot va texnologiyalar universitetining filiali ish boshladi. Kinematografiya sohasida ikki tomonlama hamkorlik izchil rivojlanmoqda. Birgalikda ishlab chiqarilgan “Mendirman Jaloliddin” tarixiy seriali tomoshabinlar e’tiborini qozondi.

Tashqi iqtisodiy, madaniy va gumanitar aloqalarni mustahkamlashning rag‘batlantiruvchi omillaridan biri bo‘lgan turizm sohasi Toshkent va Anqarada ikki iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlashning ishonchli omili sifatida qaraladi. Turk mutaxassislari O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda ishtirok etmoqda. Turkiya fuqarolari yurtimizning madaniy va tarixiy joylariga katta qiziqish bilan qaraydi.

Har hafta o‘nlab aviaqatnovlar Toshkent, Samarqand, Buxoro va Istanbul, Anqara, Antaliya shaharlarini o‘zaro bog‘layapti. Samarqandda Turkiya Bosh konsulxonasining ochilishi davlatlararo munosabatlarni mustahkamlash va keng qamrovli strategik sheriklik tamoyillarini amalga oshirishning ijobiy belgisi bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan ushbu mamlakatda rasmiy tashrif bilan bo‘lishi munosabatlar rivojida muhim o‘rin tutadi. Tashrif doirasida Anqara shahrida ikki davlat rahbarlari raisligida Strategik hamkorlik kengashining to‘rtinchi yig‘ilishi o‘tkazilishi ko‘zda tutilgan. Sammit kun tartibidan O‘zbekiston-Turkiya keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish va mustahkamlash masalalari o‘rin olgan. Amaliy hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, tovar ayirboshlash hajmini oshirish, sanoat, “yashil” energetika, elektrotexnika, to‘qimachilik, farmatsevtika tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi va boshqa yo‘nalishlarda, shu jumladan, davlat-xususiy sheriklik dasturi doirasida kooperatsiya loyihalariga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda 85 million aholiga ega Turkiya strategik jihatdan muhim davlat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Sharq va G‘arb, Osiyo va Yevropa chorrahasida joylashgan bu mamlakat o‘zining iqtisodiy ko‘rsatkichlari, harbiy salohiyati va diplomatik mahorati bilan xalqaro maydonda muvozanatlovchi kuch vazifasini bajarmoqda. Turkiya dunyoning eng yirik iqtisodiyotlaridan biri va G20 (Katta yigirmalik) a’zosidir. Turizm sohasida dunyoning kuchli beshligiga kirgan bu mamlakatga har yili o‘nlab milliard dollar valyuta oqimi kirib keladi.

Turkiyaning bugungi dunyodagi nufuzini harbiy qudratisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. U NATOning eng yirik va muhim a’zolaridan biri, tashkilotda qo‘shin soni bo‘yicha AQSHdan keyingi o‘rinda turadi. So‘nggi yillarda bu davlat harbiy texnika importidan voz kechib, eksport qiluvchiga aylandi. Turkiya Turkiy davlatlar tashkilotining (TDT) asoschisi va faol a’zosi sifatida Markaziy Osiyo va Ozarbayjon bilan aloqalarni strategik darajaga olib chiqdi.

Prezidentimizning Turkiyaga tashrifi kun tartibidan joy olgan yangi kooperatsiya loyihalari portfeli O‘zbekiston sanoatini modernizatsiya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Innovatsiyalar, yashil energetika va yuqori texnologiyalar sohalaridagi kelishuvlar ikki mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshiradi. Bundan tashqari, Turkiya tomoni bilan mahalliy xomashyo asosida zamonaviy dori vositalari va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, O‘zbekiston paxtasini to‘liq qayta ishlash va tayyor brend mahsulotlari bilan jahon bozoriga birgalikda chiqish ham rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, oliy darajadagi mazkur tashrif ikki davlat o‘rtasidagi ko‘p qirrali hamkorlikni sifat jihatidan mutlaqo yangi darajaga ko‘taradi. Bu nafaqat siyosiy va iqtisodiy kelishuvlar majmui, balki ikki qardosh xalq hamda mintaqa farovonligi yo‘lida xizmat qiladigan muhim siyosiy voqea bo‘lib tarixda qoladi. Toshkent va Anqaraning birligi – mintaqaviy barqarorlik va taraqqiyotning mustahkam kafolatidir.

Jamoliddin BADALOV

ZARRANING ZALVORI

Boshlanishi 1-sahifada.



Uglerod nanonaychalarining butun dunyoda qanchalik muhim ekanini ko‘rib, bilib kelyapmiz. Shunga ko‘ra, “Nima uchun buni o‘zimizda ham amalga oshirmaslik kerak?” degan fikr paydo bo‘ldi. Aynan shu savol meni bu sohaga kirib kelishimga, dastlabki natijalarga erishishimga sabab bo‘ldi.

Hozir nanokatalizatorlar bozori dunyo bo‘yicha taxminan 3 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi. Mutaxassislar hisobiga ko‘ra, 2033-yilga borib bu ko‘rsatkich 5 milliard AQSH dollaridan oshishi kutilmoqda. Uglerod nanonaychalari bozorini oladigan bo‘lsak, hozirda u taxminan 10 milliard AQSh dollariga teng. 2030-yillarga kelib bu ko‘rsatkich 20 milliard dollarga yetishi mumkin.

Mana shu raqamlarning o‘ziyoq ushbu sohaning qanchalik istiqbolli va dolzarb ekanini ko‘rsatadi.

– Uglerod nanomateriallariga bo‘lgan talabning ortishida qanday omillar bor? Xususiyatlari va qo‘llanilish sohalari bo‘yicha hamda ilmiy ishingizga aloqasi haqida ma’lumot bersangiz.

– Oddiy qilib aytganda, hozir juda mayda, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin juda kuchli va foydali material tayyorlayapmiz. Bu uglerod nanonaychalari asosan boshqa mahsulotlarga qo‘shiladi va ularning xususiyatini keskin yaxshilaydi.

Qurilish sohasini olaylik. Agar uglerod nanonaychalari betonga atigi 0,1-1 foizgacha qo‘shilsa ham, betonning mustahkamligi bir necha barobar oshadi. Odatda beton vaqt o‘tishi bilan yorila boshlaydi, nanonaychalar esa buning oldini oladi. Bu materialning mustahkamligi oddiy po‘latdan bir necha o‘n, hatto yuz barobar yuqori bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, ushbu ishlanmalar aviatsiya va avtomobilsozlik sohalarida ham keng qo‘llaniladi. Ayniqsa, uglerod nanonaychalari yuqori elektr va issiqlik o‘tkazuvchanligi, vaznining yengilligi, mustahkamligi hamda yong‘inga chidamliligi bilan ajralib turadi.

Elektronika sohasida chiplar, datchiklar va sensorlar ishlab chiqarishda foydalanilsa, farmatsevtika va biotibbiyot yo‘nalishlarida dori vositalarini organizmdagi zararlangan hujayralarga manzilli yetkazish, saraton kasalligini erta tashxislash va davolash jarayonlarida qo‘llaniladi.

Uglerod nanonaychalarini asosan uch xil usulda sintez qilish mumkin: yoyni razryadlash, lazerli ablyatsiya va kimyoviy bug‘larni cho‘ktirish. Ushbu usul ingliz tilida Chemical Vapor Deposition, ya’ni CVD deb ataladi va amaliyotda eng ko‘p qo‘llaniladi. CVD usulida uglerod nanonaychalarini sintez qilishda asosiy rolni katalizatorlar bajaradi. Ular ham uch turga bo‘linadi: gomogen, geterogen va nanokatalizator. Nanokatalizatorlar gomogen va geterogen katalizatorlarning afzalliklarini o‘zida mujassamlashtirgan bo‘lib, ularning asosiy ustunligi o‘lchamining juda kichikligidadir. Shu sababli, nanokatalizatorlar nafaqat reaksiya tezligini oshiradi, balki sintez jarayonida hosil bo‘layotgan mahsulotning tuzilishi va shaklini ham boshqarish imkonini beradi.

Bu xususiyat an’anaviy katalizatorlarga xos emas. Shundan kelib chiqib, hozirgi kunda uglerod nanonaychalarini kimyoviy bug‘larni cho‘ktirish – CVD usulida sintez qilish jarayonida katalizator sifatida aynan nanokatalizatorlardan foydalanilmoqda. Bu esa yuqori sifatli va boshqariladigan tuzilishga ega uglerod nanonaychalarini olish imkonini beradi.

– Bu jarayon moddiy tomondan qimmatga tushsa kerak?

– Bu yerda ikkita asosiy masala bor: biri – ularni qanday qilib olish, ikkinchisi – qayerda va qanday qo‘llash. Bizning laboratoriyada shunday imkoniyat borki, uglerod nanonaychalarini sintez qilish jarayonida ishlatiladigan asosiy moddalarni o‘zgartirib ishlashimiz mumkin. Masalan, uglerod manbayi sifatida turli uglevodorodlardan foydalanamiz.

Katalizatorning o‘zi ham juda muhim. Masalan, hozirgi kunda dunyoda uglerod nanonaychalarini sintez qilishda, katalizator sifatida ko‘pincha qimmat metallardan – platina, oltin, kumush kabilardan foydalaniladi. Bizning asosiy maqsadimiz – aynan shu jarayonni arzonlashtirish.

Masalan, platina yoki oltin o‘rniga nikel, temir yoki kobalt kabi metallar nanozarralarini katalizator sifatida qo‘llayapmiz. Bu metallar ancha arzon, lekin to‘g‘ri sharoitda ular ham uglevodorodlarni parchalab, uglerod nanonaychalarini hosil qilishga qodir.

Agar katalizator qimmat bo‘lsa, bu oxir-oqibat butun mahsulotning tannarxiga ta’sir qiladi. Masalan, hozirgi kunda uglerod nanonaychalarining bir grami bozorda 500 dollargacha baholanadi. Asosiy maqsadimiz esa shu narxni tushirish. Buning uchun sintez jarayonida qimmat materiallarni arzonroq materiallar bilan almashtiramiz, prekursorlarni ham optimallashtiramiz. Natijada, butun sintez jarayoni iqtisodiy jihatdan arzonlashadi va olingan uglerod nanonaychalarning ham narxi pasayadi.

Qilayotgan ishlarimizning asosiy maqsadi – uglerod nanonaychalarini nafaqat olish, balki ularni kelajakda kengroq va arzonroq qilib, sanoatga tatbiq etish imkonini yaratishdir.

– Institut moddiy-texnik bazasi ana shu yirik loyihalarni amalga oshirish uchun yetadimi?

– Albatta. Bu dargohning eng katta boyligi – ustozlar. Qolaversa, uglerod nanonaychalarni sintez qilishdan tortib, ularni tahlil qilish va xossalarini o‘rganishgacha bo‘lgan jarayonda ishlatiladigan analitik qurilmalar juda qimmat va murakkab hisoblanadi. Bunday zamonaviy qurilmalar har bir laboratoriyada ham mavjud emas. Shu bois, O‘zbekiston Milliy universitetining magistratura bosqichini tugatgach, 2010-yilda amaliyotlar jarayonida yaqindan tanishganim – U.A.Arifov nomidagi Ion-plazma va lazer texnologiyalari institutida ishlay boshlaganman.

O‘sha yillari hozirgidek sharoitlar yo‘q edi. So‘nggi yillarda institut yangi qiyofa kasb etdi, zamonaviy laboratoriyalar tashkil etildi, ilmiy tadqiqotlar olib borish uchun zarur bo‘lgan sharoitlar yaratildi. Bundan tashqari, so‘nggi 10 yil ichida ilmiy xodimlar va yosh olimlarga ajratiladigan mablag‘lar ham bir necha barobarga oshirildi. Oliy ta’limdan keyingi ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash kuchaytirildi. Zamonaviy analitik qurilmalar olib kelindi va laboratoriyalarga joylashtirildi.

Hozircha imkoniyatlarimiz ancha yaxshi. Yana kerakli qurilmalar bosqichma-bosqich olib kelinmoqda. Ular to‘liq o‘rnatilgach, biz olingan mahsulotlarning morfologiyasini, ichki tuzilishi va boshqa xususiyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Hozirda uglerod nanonaychalarini litiy-ion batareyalari uchun kompozit anod materiali sintezi yo‘nalishida ilmiy tadqiqot olib boryapman.

– Suhbat uchun samimiy minnatdorlik bildiramiz, ilmiy faoliyatingizda ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Vasila HABIBULLAYEVA suhbatlashdi.



“AYOL UYG‘ONMASA, UYG‘ONMAS MILLAT”

Boshlanishi 1-sahifada.

Qaysi davlat xotin-qizlarining bilimli, zamonga mos kasb-hunarli bo‘lishiga e’tibor qaratmas ekan, o‘sha davlat albatta yutqazadi. Ayollari e’zozlangan yurtning esa kelajagi buyuk, avlodlari barkamol bo‘ladi.

Yana bir gap. “Bir o‘lkani bosib olmoqchi bo‘lsang, avval ayollarining ruhiyatini bil. Agar u yerda bo‘shliq, irodasizlik, loqaydlik, johillik, qo‘rquv va havoyi so‘zlarga uchish bo‘lsa, bu mamlakatni jangsiz ham bosib olasan”, degan hikmat bor. Bu tarixdan saboq, bugungi dunyo manzarasidan ibratdir.

Bugun yurtimiz aholisi 38 milliondan oshdi, uning 18 milliondan ziyodini xotin-qizlar tashkil qiladi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida, har yilgi davlat dasturlarida xotin-qizlar masalasida alohida bandlar ajratilishi bejiz emas. Barcha islohotlar inson qadri, ayol ma’rifati uchun amalga oshirilmoqda.

Quvonarlisi, ayollarimiz orasida bugun 17 nafar O‘zbekiston Qahramoni, 15 nafar akademik, uch mingdan ortiq fan doktori bor. Sport va fan olimpiadalarida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar haqida aytib o‘tirishning hojati yo‘q. Chunki xalqimiz har bir chempionimizni o‘z qiziday yaxshi taniydi, e’zozlaydi. Ay-Ti sohasiga qiziqayotgan, shu bo‘yicha saboq olayotgan, o‘z faoliyatini boshlayotgan qizlarimiz davrasi yildan yilga karra-karralab ko‘paymoqda. Mana buni barqaror rivojlanish mevasi, desa bo‘ladi.

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida mahalla infratuzilmasini yanada yaxshilash haqida katta loyiha va tashabbuslarni ilgari surdi.

“Hozirgi vaqtda qaysidir mahallada yo‘l, qaysi birida suv yoki elektr masalasi, boshqasida bog‘cha, maktab, tibbiyot, yana birida uy-joy bilan bog‘liq masalalarga alohida-alohida yechim berilmoqda. Ochiq aytish kerak, buning o‘zi bilan mahalladagi barcha masalalar to‘liq hal bo‘lib qolmaydi. Shuning uchun kelgusi yildan mahallani rivojlantirish bo‘yicha kompleks yondashuv joriy etiladi”.

“Murojaatnoma”dan

Tarixiy ma’ruzaning har bir bandini sinchiklab o‘qib chiqdim va har birining zamirida baribir Ayol, Oila, Yoshlar manfaati mujassam ekanini ko‘rdim. Prezidentimiz: “Yangi yilda mahallalardagi aholini, xususan, xotin-qizlarni sportga keng jalb etish, buning uchun zarur infratuzilmani yaratish bo‘yicha uch yillik dastur qabul qilib, bunga 1 trillion so‘m yo‘naltiramiz”, deya ta’kidladi.

– Demak, xotin-qizlarning har tomonlama rivojlanishi uchun huquqiy, moddiy va ma’naviy asoslar yaratilgan. Lekin ba’zi hollarda ana shu imkoniyatlardan foydalanmayotgan, chaynab berilgan luqmani yutishga-da hafsala qilmayotgan opa-singillarimizni ko‘ramiz…

– Jurnalistika bo‘yicha o‘qiganman, xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha yarim asrdan ko‘p tajribam bor. Na kuzatuv, na ilmiy yondashuv bilan “Ayolga nima kerak?” degan savolga javob topishga qiynaldim, Zarnigorjon.

“Nimalar kerak o‘zi ayolga?” – bu savol balki dunyo yaralgandan beri aytib kelinadi. Shu savolga bir ziyoli, o‘zbek onasi, o‘zbekona ro‘zg‘or bekasi o‘laroq, hayotiy tajribamdan javob topishga harakat qildim.

Ayol shunday mo‘jiza ekanki, alpinist bo‘lmasa ham bir cho‘qqini zabt etishni topshirsangiz, egallab qaytadi. Qanday qilib? Buning uchun ko‘p narsa kerakmas, yonida unga ishonadigan, ruhlantiradigan, suyanch bo‘ladigan, qo‘llab-quvvatlaydigan odam bo‘lsa, bas. Nozik xilqat vakilalari uchun qimmatbaho sovg‘a bilan shirin so‘zning qiymati teng, balki so‘z qadrliroq. Ikki og‘iz lutf-u karam kimni o‘ldiribdi?! Uning sabri toshdan qattiq, ammo qalbi qizg‘aldoq bargidan nozik: bitta so‘z bilan to‘kilib ketishi, bitta so‘z bilan qanot chiqarib parvoz qilishi mumkin. Mana, Prezidentimizning



ma’ruzalari, uchrashuvlardagi so‘zlariga e’tibor bering. U kishi shunchaki tabriklab yo olqishlab qo‘ymaydi, o‘z nutqlarida xotin-qizlarimiz sha’niga bitilgan allomalarning so‘zlari, shoirlarning shohbaytlaridan misol keltiradi. Bundan har bir erkak o‘rnak olishi kerak.

Bir vaqtlar “Ayolini asragan erlar” degan maqola o‘qigandim. Mazmuni umumiyroq esa-da, sarlavhasi manzur bo‘lgandi. Boya aytganimdek, ayolning suyanchi eri bo‘lsa, oilada farog‘at, ishda omad yor bo‘ladi.

Shu o‘rinda ayrim singillarimni koyib qo‘ymasam bo‘lmaydi. Masalan, 56 yil bo‘libdi mehnat faoliyatimni boshlaganimga. Turli darajadagi mas’ul vazifalarda ishladim. Ammo kim bo‘lishimdan qat’i nazar, uyga kirib borganimda uy bekasiga, rafiqaga, kelinga, onaga aylanaman. Charchoq bo‘lmaydi deysizmi, bo‘ladi. Lekin uyda halovat bo‘lmasa, oila davrasidagi vaqt mazmunli o‘tmasa, kim uchun, nima uchun yelib-yugurib yuribmiz?! O‘z oilasida tinchi yo‘q odam mahalla, jamiyat, davlat tinchi haqida bosh qotira oladimi? Shuning uchun bugungi kun ayollariga aytgim keladi, oila – muqaddas, uni asrash kerak.

– Siz o‘sha mashhur “Qirq tog‘oraning qirq nog‘orasi” serialining g‘oya mualliflaridansiz. Ushbu kartina hamon dolzarbligini yo‘qotmagan. Aksincha, to‘y-hashamdagi isrof, “gap” va “ulfatchilik”ka mukkasidan ketgan ota-onalarning saviyasi, bunday oilalardagi bolalar tarbiyasi masalasi yana ham dolzarblik kasb etmoqda.

– Bir asr oldin Abdulla Avloniy yozib ketgan: “Onalarimiz bilim va tarbiya o‘rnig‘a erlari ila urushib-talashub qizlarig‘a mol qilmakni yaxshi ko‘rurlar”. E’tiborni to‘yga qarataveramiz-u, keyingi hayotni o‘ylamaymiz. Yosh qizlarimiz, kelinlarimiz bugun me’yorni unutib qo‘ymoqda.

Mana, bir misol. Yaqinda to‘y qilgan bir ona gapirib berdi: “Kelinning har turli qiliqlarini ko‘rib, o‘g‘limning chehrasi ochilmasligidan xavotirlanib, “Turmushlaring yaxshimi?” desam, o‘g‘lim: “Ona, hammada shunaqa bo‘ladimi? Ikki oy yashagan bo‘lsak, bir oy urishib, gaplashmay yashadik”, deydi. “Nimaga urishding?” desam, uzoq jim qolib: “Dugonalarim asal oyida chet elma-chet el yuribdi. Siz ham meni Eyfel minorasiga olib borishingiz kerak. Bo‘lmasa mashina olib bering!” deb shart qo‘ygan kelinigiz”, dedi. Bolam ham yo‘q demagan, faqat ozgina kutishini, qarz-qavolani uzib, sekin-asta hammasiga erishishni aytgan. Tannoz xonim oyoq tirab turib olgan. Ajrashib ketmasa edi, deb xavotirdaman…”

Mana bunday savdolar borki, endi o‘sha “Qirq tog‘oraning qirq nog‘orasi” serialini yangitdan olish kerak.

Bu dengizdan tomchi, xolos. Demak, xotin-qizlar bilan ishlash bo‘yicha mas’ullarning qiladigan ishlari ko‘p hali. Bu borada malakali psixologlarimiz, oilashunos olimlarimiz, “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti vakillari ham kamarbasta xizmatdamiz.

O‘tgan yili uch yarim mingga yaqin mahallada xotin-qizlar faollarini 36 soatlik malaka oshirish darslariga qamrab oldik. Har birining qo‘liga 10 nomdan ortiq qo‘llanma topshirdik. Endi ular ham xonadonga kirib, buvijonlar, qaynonajonlar, onajonlar bilan ishlasa, dilimizni xira qiladigan, davlatimiz rivoji, xalqimizning farovonligi, oilalarimizning mustahkamligiga raxna soladigan salbiy holatlar o‘z-o‘zidan kamayadi.

Bu yo‘lda adabiyot, san’at, madaniyat sohalaridan, kitobxonlikdan unumli foydalanish zarur.

– Sir emas, bugun xotin-qizlarimizning aksari o‘z qarashlarini instagramdagi blogerlar, psixologlar, motivatorlarning chiqishlari orqali ham shakllantirmoqda. Bu qanchalik to‘g‘ri?

– Avvallari yoshlarimiz psixologga muhtoj bo‘lmagan. Nega? Chunki yigitlar bilan otasi, amaki-tog‘alari, ustozlari shug‘ullangan, ularning haqiqiy erkak bo‘lib voyaga yetishida yo‘l-yo‘riq berib borgan. Qizlarimiz esa momolarining qabatida o‘tirib, onasining yonida yurib hayotga tayyorlangan. Ulardan yashirgan, uyalgan sirlarini yangalariga ochgan. Qizlar tarbiyasida amma-xolalarning, mahalla kayvonilarining roli katta bo‘lgan. Bugun oilaviy muloqot kamayib bormoqda. Umuman, kunlik o‘zaro jonli muloqot soatlari qisqarib ketyapti. Natijada, qizlar o‘z dardiga davoni ijtimoiy tarmoqlardan izlayapti.

Shuning uchun psixolog kerak hozir, faqat bir qoidani unutmagan holda. Ya’ni, tarbiyachining o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Ammo bugun na ma’lumotga, na farosatga ega bo‘lgan chala psixolog-u qoloq motivatorlar kasriga oilalarda ichki nizolar kuchayib bormoqda. Er-xotin, ota-bola munosabatlari keskinlashdi. Avlodlar o‘rtasida shundoq ham tafovutlar mavjud, uzoqni o‘ylamay qilingan chiqishlar esa uni jarlikka aylantiryapti.

O‘zim ham bir nechta “instadaho”larni eshitib ko‘rdim. Ko‘rinib turibdiki, aksarining gapi, maslahati va tavsiyalari xorij manbalaridan tarjima qilingan. Axir har bir xalqning, har bir mintaqaning o‘z shart-sharoiti, dunyoqarashi bor. Hech kim Afrikada po‘stin kiyib yurmaydi-ku! Shuning uchun har gap quloqqa yoqsa, ergashib ketmasdan o‘ylab, mulohaza qilib ko‘rish kerak.

Ammo bu bilan odamlarni psixologdan cho‘chitib qo‘yish ham kerakmas. Shu sohada o‘qigan, tajriba oshirgan malakali mutaxassislarga murojaat qilib, turli masalalarda yordam olishning zarari yo‘q, hatto, foydali ham. Shuning uchun oliy ta’limda oilashunos psixologlarni tayyorlashga yanada ko‘proq e’tibor qaratish kerak. Mana, 10 millionga yaqin oila bor. Shu bois, bir necha yillik oilaga ham, yangi oilaga ham psixologning maslahati kerak. Lekin u qanaqa tavsiya beryapti? Ehtiyoj bor ekan, asl psixologlarni o‘zimiz tayyorlab, Internet olamiga olib kiraylik. Aks holda, begona kalit solingan qulf buzilganiday, o‘zining ruhiyatida muammosi bor “ruhshunos”lar millat ruhiyatini buzib qo‘yishi hech gap emas.

Motivatorlikka da’vom yo‘q, lekin buvi sifatida aytgim keladi yoshlarga: siz hammani seving – oilangizni, qo‘ni-qo‘shni, qarindosh-urug‘ni, shunda sizni sevuvchilar doirasi ham kengayadi. Shunda o‘zingizni kerakli, qadrli deb his qilasiz. Mehr bersangizgina, mehr olasiz. Odam taftini odam oladi.

Inson bilan tirikdir inson,
Muhabbatdan hayotning boshi.
Odamzodga baxsh etadi jon,
Odamlarning mehr quyoshi.

Erkin VOHIDOV

Beminnat psixolog bu – kitob. Masalan, jadid bobomiz Abdurauf Fitratning “Oila” degan asari bor. Unda oilaga oid eng mayda masalalargacha e’tibor qaratilgan. Bir asr oldin yozilgan bo‘lsa-da, bugungi qator muammolarimiz ham aks etgan. Afsuski, bu kitob kam adadda chiqqan. Men xohlardimki, 50 minglab nusxada chiqarib, oila qurayotgan yoshlarga, FHDYO bo‘limida nikoh guvohnomasiga qo‘shib bersak, qanday yaxshi bo‘lardi. Bir umrga dasturulamal bo‘lib qoladi shu xonadonda.

– Kitob o‘qish uchun ham oilada bo‘sh vaqt bo‘lishi kerak. Ayniqsa, farzandlar dunyoga kelgach, yosh onalarimizda ana shu vaqt masalasi muammoga aylanishi sir emas.

– “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining birinchi bo‘lim, birinchi bandida bitta narsaga e’tibor qaratdim. Maktabgacha ta’limga bolalarimizni qamrab olishni 2030-yilgacha 81 foizga yetkazish nazarda tutilgan. Keyin o‘ylab qoldim, nimaga birinchi bo‘lib shu vazifa qo‘yildi, boshqa narsalar emas?

Avvalo, bolaning dunyoqarashi, bilimi o‘sadi, sog‘lom turmush tarziga o‘rganadi. Maktabgacha ta’lim onaga nima beradi? Birinchidan, halovat – bolasi ishonchli qo‘llarda, yaxshi parvarishda ekaniga ishonch hosil qiladi. Ikkinchidan, bo‘sh vaqt – o‘z ustida ishlay oladi, kitob o‘qiydi, o‘zini parvarish qiladi. Mana shuning uchun ham bu masala dolzarb, buning tagida juda gap ko‘p.

– Farida opa, o‘zingiz faoliyat olib borayotgan dargohning maqsad-muddaolarini yana bir bor o‘quvchilarimizga sharhlab bersangiz.

– O‘zbekiston Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda imzolangan “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida “Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgan.

Institut oldiga xotin-qizlar qo‘mitasi tizimi xodimlari, shuningdek, mahalladagi xotin-qizlar faollarining malakasini oshirish, ularning faoliyatini uslubiy qo‘llab-quvvatlash, oila, xotin-qizlar va gender tenglik masalalariga oid muammolarni chuqur tahlil qilish, natijalari bo‘yicha muammolar yechimi yuzasidan davlat organlari va tashkilotlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish va kiritish, targ‘ibot ishlari uchun uslubiy qo‘llanmalar va targ‘ibot materiallarini tayyorlash, xalqaro indeks va reytinglarda O‘zbekiston o‘rnini yaxshilash bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish va tegishli vazirlik va idoralarga kiritib borish singari muhim maqsadlar qo‘yilgan.

Ayni paytda, muassasamizda oila, xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo‘yicha fanlararo fundamental, ilmiy-amaliy tadqiqotlar, sotsiologik so‘rovlar, ilmiy konferensiyalar o‘tkazish, olimlar va ilmiy salohiyatli kadrlarni tayyorlash, ilmiy tadqiqot o‘tkazayotgan izlanuvchilarni qo‘llab-quvvatlash, ularning ishlanmalarini amaliyotga joriy etishga ko‘maklashish, ilg‘or xalqaro tajribani o‘rganish va tahlil qilish, xalqaro tashkilotlar, jamg‘armalar, mahalliy va xorijiy tadqiqot markazlari, o‘quv muassasalari bilan shartnomalar asosida tadqiqotlar olib borish hamda o‘rganishlar asosida takliflar ishlab chiqish ishlari olib borilmoqda.

– Shoira Sharifa Salimova yozadiki, “Ayol uyg‘onmasa, uyg‘onmas millat”. Farida opa, millat ayollarini uyg‘otish yo‘lidagi faoliyatingiz bardavom bo‘lsin. Salomat bo‘ling! Yangi-yangi tadqiqotlar, kitoblar va ijod mahsullari orqali xalqimiz ilmiy-ijodiy xazinasini boyitib boravering!

Suhbatdosh:
Zarnigor IBROHIMOVA

OLAM OLIMI



AZIZ SANJAR

DNK ta’mirlash mexanizmlari orqali inson salomatligi va kelajak tibbiyotiga yo‘l ochgan nobelchi olim

Zamonaviy molekulyar biologiya va genetika fanining rivojlanishida taniqli olim, Nobel mukofoti laureati Aziz Sanjarning o‘rni beqiyos. Uning DNK ta’mirlash mexanizmlari bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari inson genomining barqarorligi, saraton kasalliklari va biologik soat tizimini tushunishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Aziz Sanjarning ilmiy yutuqlari nafaqat jahon miqyosida, balki O‘zbekistonda ham yuksak e’tirof etilmoqda. Jumladan, 2018-yil oktyabr oyida unga Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti tomonidan faxriy professor unvoni berildi. Shuningdek, olim nomi bilan O‘zMU Biologiya fakultetida maxsus ilmiy laboratoriya tashkil etildi. 2023-yilda Samarqand davlat universitetida ham Aziz Sanjar nomidagi ilmiy laboratoriya o‘z faoliyatini boshladi. Ushbu laboratoriyalar molekulyar biologiya, genetika va biomeditsina sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda yosh olimlarni tayyorlashga xizmat qilmoqda.

ILMIY BIOGRAFIYA VA MUVAFFAQIYAT YO‘LI

Aziz Sanjar 1946-yil 8-sentyabrda Turkiyaning Mardin shahrida tug‘ilgan. U Istanbul universiteti tibbiyot fakultetini tamomlab, keyinchalik AQSHdagi Texas universitetida molekulyar biologiya yo‘nalishida doktorlik (PhD) darajasini olgan. Hozirda u AQSHning Shimoliy Karolina universiteti tibbiyot maktabida professor sifatida faoliyat yuritadi.

2015-yilda DNK ta’mirlash mexanizmlarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlari uchun kimyo bo‘yicha Nobel mukofotiga sazovor bo‘ldi.

ILMIY TADQIQOT YO‘NALISHLARI

Olimning asosiy ilmiy yo‘nalishlari DNKni tiklash mexanizmlari, biologik soat va kriptoxrom genlari, hujayra sikli, mutatsiya jarayonlari hamda saraton terapiyasida xronoterapiya konsepsiyasini o‘z ichiga oladi. Aziz Sanjarning tadqiqotlari DNKning ultrabinafsha nurlar ta’sirida zararlanishi va hujayra tomonidan qanday tiklanishini molekulyar darajada tushuntirib berdi. Bu ishlar genom barqarorligini saqlash mexanizmlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etdi.

INSON SALOMATLIGI UCHUN AHAMIYATI

Aziz Sanjarning ilmiy ishlari tibbiyot va biotexnologiya sohasida qator amaliy natijalarga olib keldi. Xususan, saratonni davolashda dori vositalarini organizmning biologik soatiga mos vaqtda qo‘llash – xronoximioterapiya usuli samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, genetik kasalliklar, qarish jarayoni va mutatsiya mexanizmlarini tushunishda ham uning tadqiqotlari muhim nazariy asos bo‘lib hisoblanadi.

SARATON BO‘YICHA ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

Olim hozirgi kunda biologik soat va DNK ta’mirlash tizimining o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishni davom ettirmoqda. Ushbu tadqiqotlar saraton hujayralarining shakllanishi va rivojlanishini yangi nuqtayi nazardan tushuntirish imkonini beradi. O‘rxon Bursali tomonidan yozilgan maqolada qayd etilishicha, mazkur yondashuv kimyo va radioterapiyaning samaradorligini oshirish bilan birga, sog‘lom hujayralarga yetkaziladigan zararni kamaytirishga xizmat qiladi.

O‘ZBEKISTON HAQIDAGI FIKRLARI

Aziz Sanjar O‘zbekistonga bir necha bor tashrif buyurgan va mamlakatning ilmiy salohiyatini yuqori baholagan. U yurtimizni qadimgi sivilizatsiya va ilm-fan markazlaridan biri sifatida ta’riflab, yosh olimlar va talabalarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish muhimligini ta’kidlagan. Uning fikricha, O‘zbekiston yoshlari global ilm-fan maydonida munosib o‘rin egallashi mumkin.

TURKIY DUNYO E’TIROFI

2024-yilda Ozarbayjonning Shusha shahrida bo‘lib o‘tgan TURKSOY Doimiy Kengashining 40-yig‘ilishida Aziz Sanjarga “Turk dunyosi madaniyat elchisi” unvoni berildi. 2025-yilda esa Toshkent shahrida Turkiy Davlatlar Tashkiloti tomonidan unga turk dunyosida fan va texnologiya sohasiga qo‘shgan hissasi uchun Alisher Navoiy nomidagi Xalqaro mukofot topshirildi.

XULOSA

Aziz Sanjarning ilmiy faoliyati molekulyar biologiya va tibbiyot fanlarida yangi ilmiy qarashlarni shakllantirdi. Shu bilan birga, u turkiy dunyo va O‘zbekistonda ilm-fan rivojiga ulkan hissa qo‘shayotgan nufuzli olimlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.

BIR ASHULA HAQIDA

Boshlanishi 1-sahifada.

Bir kuni meni ul majnunlik
da’vo qiluvchi qotil o‘ldirgusi,
Mast bo‘lib oldimdan chiqib,
raqslarga tushib, devonaday o‘ldirgusi.

Yor – sho‘x, u ma’shuqni shaydo etish, vola qilish, kuydirish uchun ming turli noz-firoqlar o‘ylab topadi, uni qiynaydi, azoblaydi, ming balolarga duchor etadi. Baytda tasvirlanishicha, yor o‘zini dalli-devona qilib ko‘rsatadi, javlon uradi, oshiqni halok bo‘lish holatiga yetkazadi.

Gar za’f ila ojizlig‘im ko‘ngliga
rahme solsa ham,
Boshimg‘a yetkach, sekretib beixtiyor o‘lturgusi.
Garchi zaiflig-u ojizligim
uning ko‘ngliga rahm solsa ham,
Boshim uzra kelgach, (ot) sakratib,
beixtiyor o‘ldirgusi.

Albatta, ojizlik rahm-shafqat, muruvvat hissini uyg‘otadi. Yor ham bunday olijanoblikdan begona emas. Ammo u goho jabr-u jafoni beixtiyor ham qiladi – oshiqning boshi



ustiga shiddat bilan bostirib kelgach, sur’atini bosa olmay, ot sakratib, beixtiyor oshiqni halok etadi, bu bor gap.

Vasli aro gar o‘lturur,
jonimg‘a yuz ming shukr erur,
Chun qolsam andin bir zamon,
hijroni zor o‘lturgusi.
Agar vasli ichra o‘ldirsa,
jonimga yuz ming shukr qilsam bo‘ladi,
Ammo undan tirik qolsam,
unda hijroni bir lahzada zor o‘ldirgusi.

Ko‘ramizki, oshiqning oldida ikki yo‘l bor: yor vasli ichra o‘lmoq yoinki yor hajrida zor-zor yig‘lab halok bo‘lmoq. Oshiq, agar yor vasli ichra o‘lmasa, hijron azobida halok bo‘lishini biladi; tabiiyki... u vaslni tanlaydi.

Oshiq bo‘lurda bilmadim,
men notavoni xastakim,
Hajr o‘lsa, g‘am kuydurgusi,
vasl o‘lsa yor o‘lturgusi.
Oshiq bo‘lgan chog‘da, men notavon va
xasta odam, bilmagan edimki,
Hijronda g‘am kuydirishini va
vasl nasib bo‘lsa, yor o‘ldirishini.

Ishq – iztirobdir. Hatto eng baxtiyor oshiqning ham, bir lahza bo‘lsin, halovati yo‘q: rashk, yor iltifotidan umidvorlik, g‘azabidan har dam qo‘rqib turish, loaqal shu saodatli damlarining tugab qolishidan sarosima uni hamisha qiynaydi. Bunday oshiq visol ayyomida yorning o‘ldirishi-yu, hijronda esa g‘am ado qilishini biladi, shu ikki o‘t aro mudom qovriladi.

Maydon aro, ey ahli din,
kirmang tamoshosig‘akim,
Yuz ko‘rmayin ul kofiri chobuksuvor o‘lturgusi.
Ey, din ahli, bu maydon ichra
uning tomoshasiga kira ko‘rmangki,
Ul usta chavandoz kofir yuz ko‘rmay
turiboq o‘ldirib tashlaydi.

Ey musulmonlar, bu ishq maydoniga hatto tomosha qilish niyatida ham kirmang, nechukki, bu maydonda ot o‘ynatuvchi din g‘oratgari yuz ko‘rib-netib o‘tirmayoq, sizni halok qilishi – ishq qurboniga aylantirishi muqarrar.

La’ling zakoti – may tutub tirguzmasang,
ey mug‘bacha,
Dayr ichra men dilxastani ranji xumor o‘lturgusi.
Ey mug‘bacha, la’li (lab)ing zakoti bo‘lgan
may berib, tiriltir,
Yo‘qsa, bu dunyoda men dilxastani
xumorlik ranji o‘ldiradi.

Mug‘bacha – otashparast bola degani, mayxona yugurdagi ham mumtoz she’riyatda mug‘bacha deb ataladi va u ma’shuqa timsoli sifatida qo‘llanadi. Bu atama zamirida o‘tmish hayotimizdagi muayyan holatlar namoyon. Ma’shuqaning lablari shu qadar qip-qizilki, gulgunrang may uning zakoti – qirqdan bir hissasi bo‘lishi mumkin. Shoir ana shu maydan berib, jon baxsh etgil, usiz esa o‘sha mayga xumorlik mashaqqati meni halok etadi, deydi.

Derlar, Navoiy qatlig‘a gulgul ochibtur orazin,
Ko‘rguncha oni, voykim, bu xorxor o‘lturgusi.
Navoiyni qatl etish uchun (yor)
gul-gul yuzini ochibdi, deydilar.
Evoh, u gulyuzni ko‘rguncha bu intizorlik
uni xor qilib o‘ldiradi-ku.

May rangi – qizillik motivi yana davom etadi. Baytda aytilishicha, Navoiy qonini to‘kmakka chog‘lanarkan, yor qizil kiyinadi, gulgul (qizg‘ish) yuzini ochadi. Ammo shoirning armoni shundaki, yor orazini ko‘rgunicha ham bo‘lmay, bu intizorlik, tashnalik iztirobi – xorxor uni xor qilib o‘ldiradi-qo‘yadi. Xorxor so‘zi bu o‘rinda ko‘p ma’noli: orzu, tahlika, ko‘ngil hayajoni hamda g‘am-qayg‘u o‘tmishda “xorxor” deb ifodalangan. Shu tufayli, ayni baytdan bir necha xil ma’no chiqishi mumkin (chunonchi, jallodning qizil kiyim kiyib maydonga chiqib kelishi, uning vahmidan mahkum boshiga qilich tushmasidan avval yuragi yorilib o‘lishi). Bu baytning yana bir ma’nosi – gulning tikani doim bor. Gul esa bir fursatga ochilib, jilva qiladi. Gul yuzini ko‘raman, degan oshiq unga talpinar ekan, tikanlari sanchilib, uni halok etishi mumkinligiga ham ishora bor.

Shuningdek, mahkumni jazo maydoniga olib kelib, uni qatl etish onida olisdagi ayollar chimmat ko‘zini to‘sgani uchun uni chetga surib, yuzini ochganlar, degan nukta ham bor ushbu satrlarda. Biz bu o‘rinda bosh ma’noni talqin etish bilan kifoyalandik.

* * *

Ana endi ushbu g‘azalning musiqali talqini – ashula ijrosi haqida. Biz shu ashula misolida o‘zbek mumtoz qo‘shiqchiligidagi g‘alati bir hodisa haqida gapirmoqchi edik. G‘azal kuyga solib, ashula qilib aytiladigan bo‘lsa, nima uchundir qariyb yarmi olib tashlanadi, aytilmaydi. “Yarimta g‘azal ashulachiligi” avjida. Shu darajadaki, mingta g‘azal ashula bo‘lsa, kamida to‘qqiz yuztasi cho‘ltoq, “pati yulingan”. Jumladan, siz hozirgina o‘qigan g‘azalning ham to‘rt bayti ashulada bor, qolgan uch baytiga “joy tegmagan”, ortiqcha deb topilgan. Natijada, mazmun deyarli anglashilmaydi, shoirning muddaosi ro‘yobga chiqmay, chala qolib ketgan.

Bizda ashula uzog‘i bilan besh daqiqa ijro qilinadi, ko‘pincha o‘shanga ham yetib bormaydi. Holbuki, shu ruhdagi afg‘on, uyg‘ur, eron, urdu va boshqa ellarda ashula xiyla davom etadi, tinglovchiga uning butun ruhi singdiriladi.

Bunga nima sabab bo‘lgan ekan? Ehtimol, ba’zi baytlar matnida “yo Olloh!” deganday so‘zlar bo‘lsa, eski zamonda kuy bastalayotgan san’atkor o‘sha baytdan voz kechishga majbur bo‘lgandir? Zero o‘tgan asrdagi holat ma’lum.

Lekin matnni o‘qisangiz, bu gap asossiz ekani ayon bo‘ladi. Masalan, shu g‘azalning 1-, 2-, 5- va 7-bayti aytilib, 3-, 4- va 6-bayti qisqartirib ketiladi, ya’ni 43 foizi “optashlangan”. Holbuki, o‘sha baytlarning birovni g‘ijintiradigan joyi yo‘q. Xonandalar yoki kuy bastalab, ashula holiga keltirgan mug‘anniylar shu darajada o‘zboshimchaki, Navoiyni ham, Bobur, Furqatni ham shartta qisqarta beradi, chunki hoy deydigan odam yo‘q.

Tasavvur qiling, kinofilm ko‘ryapsiz. Televideniye uning yarim-yortisini kesib tashlab efirga uzatsa, asarni qanchalik tushuna olasiz? Mavzu ma’lum, ammo ma’nosi-chi? G‘azalni qisqartib aytish ham shu kabi bir holat, aslida.

Yil osha Samarqandda o‘tadigan “Sharq taronalari”da ko‘ramizki, hech qaysi chet ellik xonanda va sozanda biz kabi “kesib” xonish qilmaydi, har bir ashula uzoqqina davom etadi. Biz esa, go‘yo xijolat bo‘lganday, boshlaboq, tugatib qo‘ya qolamiz, bori shu, deganday.

Yana bir illat – aksar ashulachilarning savodi chatoq. G‘azalni o‘qishga, tushunishga hafsala qilmaydi, avvalgi xonanda qanday aytgan bo‘lsa, o‘shani magnitofondan eshitib, yodlab oladi-qo‘yadi. Xudo ko‘rsatmasin, birinchi hofiz nuqsli aytgan bo‘lsa, qirq yildan so‘ng ham bu xato takrorlanaveradi.

Jumladan, ulug‘ hofiz Komiljon Otaniyozov ushbu g‘azalni boshqa bir kuy yo‘lida chiroyli ijro etgan. Yana tahsinga sazovor jihati shuki, hech bir baytni “tashlab” ketmagan, barini to‘liq aytgan. Ammo ayrim so‘zlarni boshqa bir so‘z bilan almashtirib kuylagani afsuslanarli.

Bugun “Mustahzod” ijrosida ham shu holni ko‘ramiz. Shoir Chokar:

Husning guli to bo‘ldi jahon mulkida paydo,
ey sho‘xi parizod,
Soldi ani ishqi boshima kulfati savdo,
qilg‘il manga imdod, –

desa, Ma’murjon Uzoqov so‘nggi uch so‘zni “qilg‘il anga faryod” deb kuylagan...

Kamina bir tinglovchi, mumtoz qo‘shiqlar ixlosmandi sifatida, o‘zbek ashulachiligidagi ijroni uch turga ajratgim keladi.

Birinchisi – ashulada ovoz muhim, degan xonandalar. Ularda qo‘shiqning avjli joylarini baland tovush bilan, uzoq cho‘zib aytib, shu orqali tinglovchilarni qoyil qoldirish maqsad bo‘ladi.

Ikkinchi toifa esa – musiqa, kuy birlamchi, deydiganlar. Bunda qo‘shiq bir yoqda qolib ketib, doiraning o‘zi yakka taraklatiladi, nay alohida ajrab chiqib, “solo” tarzida nola qiladi, so‘ng g‘ijjakchi qiyshanglab kamon tortishga tushib ketadi, olqish olib, qiyqiriq qo‘zg‘ashga harakat qiladi.

Uchinchi toifa esa ashulada so‘z birlamchi, deb biladi. Qo‘shiqning so‘zlarini, g‘azalning ma’nosini uqtirishga intiladi. Hojixon Boltayev, Ma’rufxo‘ja Bahodirov ana shu toifaga mansub xonandalardan edi. Bu xil qo‘shiqchilar g‘azalni teran tahlil qilishgan, davralarda ayrim bayt, misra va bayt ma’nolarni talqin etib, fikr bayon etishgan, so‘ng... kuylashgan.

* * *

Navoiy davri tarixga aylangach, uni anglaydigan, shoir bunyod etgan ma’nolar xazinasining qadriga yetadigan zamon yo‘qlikka yuz tutdi. XVII–XIX asrlar – shu uch asr o‘zbek xalqi turmushining og‘ir davri bo‘ldi. U zamonni Abdulla Qodiriy “tariximizning eng kirlik, qora kunlari” deb baholagan. Albatta, u holda ulug‘ shoir asarlarini o‘rganish va ommalashtirishning iloji yo‘q edi. O‘sha tushkunlik asrlarida Navoiyning ijodi oddiy xalq e’tiboridan chetroqda qolgani chin.

Alisher Navoiy ijodini har taraflama tadqiq etish va ommalashtirish o‘zbek olimlari orasida bundan bir asr avval – Cho‘lpon 1924 yili “500 yil” degan maqolacha yozib, uni O‘zbek bilim hay’atiga yo‘llaganidan boshlangan. Ammo, afsuski, sovet davrida Navoiy asarlari xo‘p qisqartirildi, “feodal-klerikal” yo “diniy-mistik” ijodkor emasligini dalillash, malomatdan asrab qolish, ishqilib, elga yetkazish uchun uning “dunyoviy” sevgisi o‘ylab topildi, podshoh bilan nizosi “uyushtirildi” va hokazo...

Navoiyning yozganlarini teran idrok etadigan, bu ulug‘ ijod dunyosining sir-asrorlarini bus-butun inkishof etadigan davr endi kelgan bo‘lsa, ajab emas. Axir, mustaqilmiz, Navoiyni millat quyoshi deb ataymiz.

XX asrdagi bir necha avlod navoiyshunoslarning purzo‘r mehnati va erishgan ilmiy natijalarini e’tirof etgan holda, aytishimiz kerakki, xalqimiz orasida Navoiy nomining keng yoyilishiga avvalo uning g‘azallariga bastalangan necha yuzlab ashulalar, shuningdek, Uyg‘un va Izzat Sulton qalamiga mansub “Alisher Navoiy” dramasi (1942) eng ko‘p hissa qo‘shdi. Binobarin, zamona shu ekan, deb opera va estradaga sho‘ng‘ib ketmay, Navoiyga ixlos qo‘ygan ulug‘ san’atkorlar ruhiga hamisha tasanno aytamiz.

Ammo, ma’lumki, bugun Navoiyning barcha asarlari to‘liq nashr etilyapti, biron misra olib tashlanmaydi. Dostonlarining boshi va oxiri “kesib” nashr etiladigan zamonlar ortda qoldi. Shoirning har bir bayti – xalqimiz uchun tabarruk. Shu holda, mumtoz ashulalar ijrosida kaltagina qarichimizni mezon deb bilib, istagan baytni “kesish” davom etayotgani taajjublanarli. Axir, o‘sha baytga zarurat bo‘lmasa, Alisher Navoiy uni bitmas edi, shekilli? Qaysidir baytni “hatlab”, boshqa baytni kuylash Navoiyni... tahrir qilishga da’vo emasmi? Oqibatda, Navoiy nima deganini tinglovchiga yetkaza olmayapmiz.

Nazarimda, endi har bir g‘azalga bitilgan ashulani to‘liq ijro etish davri keldi. Ixlos qo‘ygan, ruhan shoirga yaqin bo‘lganlar eshitishdan aslo toliqmaydi.

Yana. Navoiyning – o‘zi navo. Uning g‘azallari ijrosida kekirdakka yo g‘ijjakka zo‘r berish aslo shart emas. Bunday qiliqlar shoir ruhiga ozor yetkazadi. Undan ko‘ra, shu g‘azalni takror-takror, obdon o‘qib, ruhiga kirib, samimiyat va hayajon bilan ijro qilishga hech narsa yetmaydi.

Zuhriddin ISOMIDDINOV

29-YANVAR – JO‘RAXON SULTONOV TUG‘ILGAN KUN

Ustozlarning ustozi

Musiqa olamida har bir davr san’ati o‘z sarbonlariga, hofizlik an’analarini munosib davom ettirgan darg‘alariga, yoshlarga ibrat bo‘la oladigan ustozlariga ega. Ota Jalol, Ota G‘iyos, Xudoybergan Muhrkon, Hoji Abdulaziz Abdurasulov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Hamroqul Qori, Domla Halim Ibodov, Hojixon Boltayev, Yunus Rajabiy kabi zabardast san’atkorlar orasida beqiyos iste’dod egasi, xalq va mumtoz musiqamizning mohir ijrochisi, sohir ovoz sohibi, O‘zbekiston xalq hofizi Jo‘raxon Sultonovning alohida o‘rni bor.

Jo‘raxon Sultonovning san’at olamiga kirib kelishiga sabab undagi tabiiy iste’dod edi. Odatda, mumtoz musiqa sohasini tanlash uchun, avvalo, xonandada shunga munosib ovoz, zukko hamda kuchli hofiza, barkamol tafakkur bo‘lishi lozim. Yosh Jo‘raxonda esa bu sifatlarning barchasi mujassam edi. U 12 yoshidayoq “Eng shirin ovoz sohibi” degan nomga sazovor bo‘lib, el orasida tanila boshlagan. Zamonasining dongdor san’atkorlari Boltaboy hofiz Rajabov va Mamatbuva Sattorov sabog‘idan bahramand bo‘lgan. Xonandalik va sozandalik sir-u asrorini qunt bilan o‘zlashtirib, o‘z davrining bilimdoni Madali hofizdan yalla yo‘llari bilan bir qatorda tanbur ijrosini o‘rgangan. Katta ashula ijrochiligini nazariy va amaliy o‘zlashtirib borgan.

Ma’lumki, Farg‘ona vodiysining mumtoz musiqa merosi va ijrochilik an’analari negizida “katta ashula” turadi. Katta ashula – falsafiy janr. Uning asosida xalqimizga xos qadriyatlar va barcha ijtimoiy xususiyatlar, kasb taqozo etadigan ovoz, bilimdonlik, mohirlik, badihago‘ylik, zukkolik, soz bilan so‘z mahoratini namoyish etish, hamnafaslik kabi jihatlar uyg‘unlikda tajassum topishi lozim. Usta san’atkorda aynan shunday uyg‘unlik mavjud edi.



Jo‘raxon Sultonov ijrochilik amaliyotida ustozlarning ustozi darajasiga ko‘tarilishga muvaffaq bo‘lgan. Bu jarayonda u o‘z ustozlari bilan birga, Erka Qori Karimov, Berkinboy Fayziyev, Sherqo‘zi Boyqo‘ziyev, Akbar Haydarov kabi zamonasining yetuk ashulachi-hofizlari bilan birgalikda faoliyat yuritgan.

Ijodiy faoliyati davomida Muhiddin qori Yoqubov, Yusufjon qiziq Shakarjonov, Mulla To‘ychi Toshmuhamedov, Hojixon Boltayev singari san’at ustalari va jamoat arboblari bilan tanishishi hofizning ijodiy kamolotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Taniqli san’atkorlar Malik yallachi va Madali hofizdan Farg‘onaga xos mumtoz yallalarni qunt bilan o‘zlashtiradi va zamonasining eng mukammal asarlarini ijro etib, xalqning e’tiborini qozonadi. Shu o‘rinda, musiqa ijrochiligida yallalar azaldan mumtozlik jihatlariga ega bo‘lganini e’tirof etish lozim.

Jo‘raxon Sultonovning faoliyatida maqom va maqom yo‘llariga mansub musiqiy namunalar ham alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu yo‘nalishni davrining taniqli hofizi Mulla To‘ychi Toshmuhamedov va Sodirxon hofiz Bobosharipov rahbarligida o‘zlashtiradi. Ustozlaridan, avvalo, Farg‘ona–Toshkent maqom yo‘llarida yaratilgan “Ushshoq”, “Bebokcha”, “Bayot”, “Chorgoh”, “Dugohi Husayniy”, “Shahnoz Gulyor”, “Bayoti Sheroziy” kabi turkumlarni o‘rganishga muvaffaq bo‘ladi. Bu esa uning ijrochilikda zabardastlik, purma’nolik va ko‘lamdorlik sirlarini o‘zlashtirishiga katta imkon yaratadi.

Ayni paytda, ustoz san’atkor tanburning juda boy imkoniyatlarini teran tushunib, ustozlarning ijro yo‘llaridagi o‘ziga xos jihatlarni sinchiklab o‘rganadi. Odatda, ilmni igna bilan quduq qazishga o‘xshatishadi. San’atning o‘lmas sahnasida o‘z haykalini boqiy qoldirish uchun esa noxundan xarsang yo‘nish kerak.

Katta ashulaning shakliy va ijroviy xususiyatlaridan kelib chiqib, yangi yo‘nalish va unga mos yangi asarlar yaratishga muyassar bo‘lgan san’atkorimiz katta ashulaning erkin ijrosiga musiqiy cholg‘ular jo‘rligini rusumga kiritadi.

Ustoz faoliyatining eng ahamiyatli bosqichi, ko‘p yillik ijro amaliyoti asosida o‘zining shaxsiy ijro uslubini shakllantirishga muyassar bo‘lganidir. Bu uslub nafaqat hofiz hayotligi davrida, balki undan keyingi avlodlar ijro amaliyotida ham o‘ziga xos uslub sifatida kamol topgan. Xalqimizda “Zar qadrini zargar bilar”, “Asl aslo xor bo‘lmas” kabi ibratli so‘zlar mavjud. Donishmand xalqimizning bunday hikmatlarini Jo‘raxon Sultonov kabi ustozlarning betakror ijrochilik uslublariga nisbatan qo‘llash o‘rinlidir.

Jo‘raxon Sultonov ijodining bugungi kunimiz va kelajak avlodga ibratli jihatlari uning xonandalik, bastakorlik, novatorlik hamda ustozlik faoliyatida namoyon bo‘ladi. Ustozning askiyada hozirjavobligi va ustunligi ham san’atkorlar tomonidan e’tirof etilgan. U bir necha tillarni bilgan, mumtoz adabiyotni bir umr tildan va qo‘ldan qo‘ymagan.

Ustoz san’atkor faoliyati davomida doimo adabiyotimizning yirik namoyandalari adabiy merosiga murojaat qilib kelgan. Hazrat Navoiy g‘azallari bilan “Naylayin”, “Bo‘lmish”, “Hanuz”, Lutfiy g‘azaliga “Guluzorim qani”, Habibiy so‘ziga “Bo‘lmasa”, “Ming qadam”, Muqimiy so‘zi bilan “O‘lmasun”, Furqat g‘azaliga “Ohkim, rahm aylamas”, Chustiy so‘zi bilan aytilgan “O‘zbekistonim” kabi musiqiy namunalar shular jumlasidandir.

Jo‘raxon Sultonov repertuari xalq musiqa namunalari, yirik mumtoz yallalar, maqom yo‘llariga mansub va hofizning o‘z ijodiga oid ashulalardan iborat. Jumladan, “Bir kelib ketsun”, “Noma yozmading”, “Bog‘ aro”, “Bir kelsin”, “Yovvoyi Chorgoh” ashulalari, “Dugohi Husayniy”, “Bayot I-V”, “Ushshoq”, “Ushshog‘i Sodirxon”, “Chor zarb”, “Chaman yalla”, “Ey dilbari jononim” kabi yuksak darajadagi ijrolari san’at ixlosmandlari uchun qadrlidir.

Jo‘raxon Sultonovni bemalol novator san’atkor deyish mumkin. Zero, o‘zbek musiqa san’ati rivoji yo‘lida qilgan xizmatlari, ya’ni jo‘rovozlikni joriy qilishi katta ashula ijrochiligida yangi uslub va bastakorlik ijodida o‘ziga xoslikka erishgani bunga asos beradi.

Ma’murjon Uzoqov, Ortiqxo‘ja Imom-xo‘jayev, Orifxon Hotamov, Saodat Qobulova, Berta Davidova, Ochilxon Otaxonov, Zokirjon Sultonov, Tavakkal Qodirov, Ma’rufxo‘ja Bahodirov singari sevimli san’atkorlarimiz Jo‘raxon Sultonov ijro uslubining davomchilari va ustozning ijro maktabini keyingi avlodlarga yetkazgan shogirdlaridir. Ularning har biri o‘zbek mumtoz musiqa san’ati rivojida Jo‘raxon Sultonov ijro uslubini o‘ziga xos davom ettirish bilan birga, ijro amaliyotida o‘zlari ham ustozlik maqomiga yetib, o‘z ijro uslublarini yaratishga muyassar bo‘lgan.

Jo‘raxon Sultonovning ijro maktabi keyingi avlodlarning ijodida rivojlanib borganini ko‘rishimiz mumkin. Kamoliddin Rahimov, Qobiljon Yusupov, Sherali Jo‘rayev, Mahmudjon Yo‘ldoshev, Mahmudjon Tojiboyev, Beknazar Do‘stmurodov, Mashrabjon Ermatov, O‘ktam Ahmedov, Soyibjon Niyozov, Erkinjon Ro‘zimatov, Orolmirzo Safarov kabi zamonamizning yetuk hofizlari Jo‘raxon Sultonovni ma’naviy ustozlari deb biladi. Agarda uch avlodga mansub shogirdlarning ijodi, ijrosi va jamiyatdagi o‘rniga razm solinsa, el ardog‘idagi zabardast hofizlarning uzun safini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbek mumtoz musiqasi o‘zining asl qiyofasini bezavol saqlab kelayotganiga dunyo san’at ahli havas qiladi. Bu an’anani munosib rivojlantirish har bir ijrochi, jumladan, bugun mumtoz san’at ostonasiga qadam qo‘yayotgan yoshlarning burchidir. Bu borada ustoz san’atkorlar ijodini doimo ibrat bilib, ipidan ignasigacha sinchiklab o‘rganish, o‘zlashtirish va xalqqa taqdim eta borish kerak. Zero, ildizi oqsuvga yetib borgan niholning umri ham, shohobi ham barakali bo‘ladi.

Soibjon BEGMATOV,
professor

O‘Y

ZIYOLI KIM?

Tilimizda “Ziyoli” degan so‘z bor. Bu kalima qanday ma’nolarni tashiydi, u ifodalaydigan tushunchalar qatorida bugun dolzarb bo‘lib turgan masalalarga daxldorlik qirrasi bormi, umuman, ziyoli kim va uning jamiyatdagi vazifasi nimalardan iborat? Yaqin o‘tmishimizda shu so‘zga muqobil tarzda “Intelligent” kalimasi faol qo‘llangan, lekin o‘sha davr lug‘atlarida uning tarjimasi sifatida “Ziyoli” ma’nosi ko‘rsatilmagan ekan.



Bu so‘z o‘tgan asrning 60-yillaridan urfga kirganga o‘xshaydi. Negaki, 1956-yilda tarixda birinchi va oxirgi marta chaqirilgan katta mashvarat ham “O‘zbekiston intelligensiyasining 1 syezdi” deb atalgan. Bu so‘zlarning kelib chiqishiga e’tibor bersak, “intelligent”ning o‘zagi “intellekt” – lotincha “aql”, “ziyoli” esa forscha “ziyo” so‘zidan yasalgan. Mabodo ularning ma’no doiralarini chamalasak, keyingisi ancha katta tushunchalarni qamrab olgani, keng ma’nolarni ifodalaganini sezish qiyin emas.

“Aql”ni inson tafakkurining borliqni aks ettirish quvvati, deyish mumkin va aqlda tug‘ma xususiyat ustuvor bo‘ladi, ya’ni odam aqlli va aqlsiz – nogiron bo‘lib dunyoga kelishi mumkin. “Ziyo” esa keng tushuncha, uning o‘zagida yuqorida ta’kidlangan yorug‘lik va nur ma’nolari bo‘lganidek, ijtimoiy yuklamasi ham salmoqli. Intelligent – aqliy mehnat kishisi, holbuki, xalqimiz “ziyoli” deganda faqat aqlli mehnat kishisi yoki ma’rifatli zotni emas, balki har jihatdan ibratli, bir so‘z bilan aytganda, “o‘zidan yorug‘lik va harorat” taratib yuruvchi mo‘tabar shaxsni, so‘zi o‘tadigan kayvonini, jamoatchilikning eng obro‘li odamini tushungan.

Ziyolining o‘ziga xos axloqiy “kodeks”i jamiyat faoliyati davomida shakllangan. Bunday kishilarni jamiyatimiz oldin ham, hozir ham ko‘plab tarbiyalab yetishtirgan, ular qishloqning, tumanning, viloyatning, yurtning tirgagi, ustunlari bo‘lgan. Bunday kishilarning obro‘sini yillar to‘foni ham yiqita olmaydi, ularning xayrli ishlarini hech kim unutmaydi ham.

Ziyolilik ijtimoiy tabaqa yoki kasb emas, balki jamiyatning butunlay ixtiyoriy, lekin qat’iy talablar asosida tuhfa etadigan e’tirofidir. Har qanday savodli yoki ma’rifatli odam ziyoli bo‘lavermaydi. Mening tasavvurimda tarixdagi ana shunday ziyoli zotlardan biri sifatida shayx Najmiddin Kubro hazratlari gavdalanadi. Yoki ulug‘ Alisher Navoiyni o‘zidan ziyo taratgan buyuk zot deyish mumkin. Yaqin tariximizda ham “bir kambag‘alning kulbasini shamchiroq bo‘lib yoritib o‘tgan” ziyolilar ko‘plab topiladi. Bunday zotlarning xizmatlari ko‘lami turlicha, mavqelari haminqadar bo‘lmasin, o‘z ziyolarini atrofga taratib o‘tgan, ziyolaridan atrof yorug‘lik va harorat olgan. Olg‘a bosayotgan karvon bir yo‘lboshchiga ehtiyoj sezganidek, jamiyat yorug‘ kunlarning zulmatlari – turli ikir-chikirlari o‘z yechimini topishda shunday zotlarga kuchli ehtiyoj sezaveradi. Va banogoh talotumlarga to‘la zamonlarda ziyolilar yetarli bo‘lganmi, bugun ham ular ko‘pmi, degan savol aylanaveradi.

Xuddi shunday savol bilan 10-15 yillar oldin davrimizning bir qancha faol ziyolilariga anketa tuzib murojaat qilgandim. Ayniqsa, o‘sha vaqtda har qanday mavzuda buyurtma berilsa, tezlikda bajarib “ma’rifiy dastgoh” darajasiga ko‘tarilgan taniqli olimning fikrlarini bilishni juda istagandim. Ammo olimdan banogoh “Bir qitmir jurnalist menga hammaga ma’lum savollar bilan murojaat qilaveradi”, degan javob kelgandi. Muddao esa ziyolining oddiy odamlar va rahbarlar oldidagi vazifalarining chegarasini bilish edi, bu yoqmagani aniq bo‘lgan.

Rostdan, balki zamonlar osha bir savol ko‘ndalang turar: jamiyatda ziyolining o‘rni qayerda? Qo‘lida katta imkoniyati bor tabaqa bilan eng oddiy shafqatga muhtoj odamlar o‘rtasida ziyoli qanday o‘rinni egallashi kerak, uning mavqeyi, tabiiy vazifasi nimadan iborat? O‘ylab ko‘rilsa, bu savollarga javoblar ziyolining kimligiga ham bahoni aniqlab beradi. Har jihatdan ta’minlangan tabaqaga osoyishtalik kerak, u shu zaylda yashab, qitmirroq aytganda, “davr-u davronini surib”, uzoq yillar kun ko‘rsa, shu kifoya. Oddiy e’tiborga, deylik, shikoyat arizasiga imzo qo‘ydirishga ham muhtoj qatlam esa dasti uzunlardan shafqat umid qiladi, uning xatiga ta’nadashnom yoki jarimalarsiz “muborak” imzoning chekilishi ham unga iltifot. Munosabatlarning ana shunday manzarasida hammasi insof darajasida ish tuta oladimi? Afsuski, yo‘q. Mabodo, shunday bo‘lganida, kuch tuzilmalariga, turli qonunlarga ehtiyoj qolmasdi.

Endi asosiy savolni qo‘ysak bo‘ladi: xo‘sh, ana shunday izdihomda yorug‘lik va harorat quvvvatiga ega bo‘lgan ZIYOLIning o‘rni qayerda yoki u o‘zini qayerda his qiladi? E’tiborli tomoni – ana shu savolning javobi bugun, har doim ham, jamiyat qiyofasida asosiy mezon bo‘lib kelgan. Ziyoli muhtojning haqqini himoya qila oladimi, insofsiz zo‘ravonning giribonidan ola biladimi? Balandparvoz iboralarda ta’riflanganidek, haqiqat himoyasi uchun maydonga tusha oladimi?

Azaldan insoniyat erishgan qadriyatlarda adolat ustuvorligi uchun kurash yuksak insoniy fazilat sifatida ulug‘langan. Shunisi borki, hamma tirik odam atrofidagi voqealarga parvo qilavermaydi. “Och qornim – tinch qulog‘im”, “Menga desa, dunyoni suv bosmaydimi, kulbam quruq bo‘lsin” singari qarashlar aksariyat ko‘pchilikning hayotiy me’yori. Qolgan bir hovuchgina hushyor odamlar ham murosa yo‘lini tanlaydi. Juda oz haqparastlar esa har doim qadr topavermaydi. Hatto jamiyatda axloqiy me’yorlar vayron, tanazzulga ketilayotgani aniq bo‘lgan sharoitda ham ziyolilar o‘rtada suv ayirg‘ichdek namoyon bo‘ladilar. Ularga ijtimoiy ehtiyojning kuchliligi shundan. Bu ijtimoiy ehtiyoj kuchli tarzda namoyon bo‘lganida, omma ziyolining so‘zini kutadi. Bu o‘rinda ziyolilik haqparastlikdan ham yuqori turuvchi mavqe kasb etadi.

Agar shunday yuqori talab bilan yondashilsa, bugun ZIYOLILAR KO‘PMI? Balki ularning oz-ko‘pligi jamiyatning qiyofasini belgilayotgandir. Negaki, odamni, demak, jamiyatni FIKR boshqaradi. Tasavvur qiling: bir odam yomg‘ir tagida shalabbo bo‘lib turibdi. Unga yopinchiq olib borib berishdi, turaverdi. Suv, non tutishdi, turaverdi. Xullas, miyasiga yomg‘irdan qochib, panaga o‘tish kerak, degan FIKR kelguncha turaverdi. Mana shu jo‘n misolning o‘zi odamning ust-boshini o‘zgartirish, qornini to‘ydirishdan oldin fikrini o‘zgartirish kerakligini tasdiqlab turmayaptimi? Ziyoli qavmi ana shu missiyaga yo‘naltirilgan tabaqa!

Demak, jamiyat qanday bo‘lsa, ziyoli shunday bo‘ladimi yoki ziyoli qanday bo‘lsa, jamiyat shunday bo‘ladimi? Bu so‘roqqa javob berishdan oldin, yuqorida ta’kidlanganidek, haqiqiy ziyolilar bormi, bor bo‘lsa, ularning mavqeyi, ularga jamiyatning, demak, davlatning e’tibori qanday, degan savollarga javob topish kerak bo‘ladi. Ziyoli va jamiyat hodisasi – bir-biriga ichki zanjir bilan bog‘langan yaxlit uzviylik. Ziyoli jamiyatdan tashqari bo‘la olmaydi, jamiyat ziyolisiz mukammal emas.

Tabiiy, muhokama yo‘nalishi “davlat qanday ziyoliga buyurtma beryapti”, degan savolga borib yetyapti. O‘sha javob berish erish tuyulgan anketa savollari qatorida shunday so‘roq ham bor edi: “Jamiyat ziyoliga qandaydir darajada buyurtma berishi yoki faol hayotga jalb etishi mumkinmi? Umuman, keyingi yigirma yil davomida bu borada qanday tendensiyalar ko‘zga tashlandi va ularning natijalariga munosabatingiz qanday?” Bu savolga o‘shanda ham, hozir ham javob berish oson emas. Chunki jamiyatning qiyofasi ham, kayfiyati ham o‘zgarib turadi. Jamiyatning tabiati qanday: u eng zamonaviy talablar asosida rivojlanayotgan yuqori bosqichdami yoki hali xalq manfaatlari to‘la yuzaga chiqmagan, ijtimoiy munosabatlar shakllanmagan ibtidoiy bosqichdami? Muhokamaning eng yuqori va eng quyi chegarasida jami so‘roqlarga javob topish uchun aniq bir harakat lozim bo‘ladi. Ana shu qo‘zg‘atuvchi harakatni biz anchadan beri turli shtrixlar bilan suratini chizayotgan ziyolilar amalga oshirishi talab etiladi! Mana, gap nimada?!


Yo‘l izlagan olomon qorong‘i o‘rmonda adashib qoladi va tanida erkinlik hissi jo‘sh urgan bir yigit yuragini sug‘urib, uning yorug‘i va haroratida xalqni zulmatdan qutqaradi. Vaziyatning badiiy ifodasi shunday, bu 120 yil oldin insho etilgan. Oradan bir asrdan ko‘proq vaqt kechgan, moddiyatda, texnik taraqqiyotda odamzot mislsiz yutuqlarni qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, ana shu kosmik parvozlar qanotida xuddi chigirtkadek yashirinib, o‘sha ibtidoiy manzara yashab qolaverar ekan, har doim Dankolarga ehtiyoj bor. Faqat bugun boshqa bir ko‘rinishda va manzarada.

E’tibor bering: yo‘l bo‘yidagi bir tandirkabob oshxonasida har kuni uch yuz qo‘y so‘yilib, o‘choqqa osilar ekan. Unga navbat tog‘ yo‘lida 3-4 chaqirimga cho‘zilgan. O‘rmonda adashganlar-ku, bosqinchining zulmidan qochib, keyin yo‘l topa olmay qolganlardir; kuppa-kunduzi qorin, aniqrog‘i, nafs qutqusida hil-hil pishgan etga nashavand bo‘lgandek uzun navbat qatorlari orasida adashib yurganlarning fojiasi undan o‘n-yuz baravar battar emasmi? Insonki, bizning zamondoshimizki, shu darajaga tushgan ekan, kim(lar)dir yuragini alanga qilib, olomonni bu jaholatdan – nafs ummonidan qutqarishi lozim emasmi? Yuz yillar oldin jadid bobolar qon qusib takrorlagan holat – “bu xalq ma’rifatga oshga turgandek navbatga turganida edi”, bugun dunyo uning ilkida bo‘lmasmidi? Axir qanday daholar ana shu tuproqda ko‘z ochib, ulg‘ayib, dunyoni olgan-ku! Eh, bosqinlar, bo‘linishlar, repressiya-yu korrupsiyalar guldek vatanni ne holga soldi-ya? Bu iztirobni kimlardir yuragidan o‘tkazayotgandir...

Jamiyat boshqarilishi qiyin bo‘lgan og‘ir karvon. Uning ehtiyojlarini qondiradigan vositalar uning bag‘rida paydo bo‘lib, dunyo yuzini ko‘rib, amaliyotga kirguncha yillar, o‘n yillar osongina o‘tib ketadi. Yo‘li juda uzoq bo‘lgan quyosh ziyosiga, haroratiga esa har doim ehtiyoj bor. Jamiyatda kechayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilib, to‘g‘ri yo‘nalishga da’vat etuvchi ziyolilar esa har doim faol bo‘lmoqlari tarixiy zaruriyat.

Agar millatning ziyolilari bo‘lmasa, demak, bu kulbanig chirog‘i o‘chgan, uning tiriklik olamida yashashi mumkin emas. Harakat – borlik, mavjudlik; harakatsizlik esa yo‘qlik, yo‘qolish. Hech kim o‘zicha yo‘qolishni xohlamaydi!


Hakim SATTORIY



“Inson jamiyat va davlatning ko‘lamli manfaatlari uchun qanchalik foyda keltirsa, u shu qadar barkamoldir.

Dmitriy MENDELEYEV”

TARIX VA TAQDIR



XONZODA JADID BO‘LGANMI?

Jadid harakati haqida so‘z ketganida, ko‘pchilik asosan ziyolilarni tasavvur qiladi. To‘g‘ri, Turkistonda jadid harakati paydo bo‘lishi va mustahkam ildiz otishida ziyoli insonlar: shoir-yozuvchilar, muallimlar, ulamolar, matbuot xodimlari o‘z hayotlarini tahlikaga solib bo‘lsa-da, oldingi saflarda turgani ayni haqiqat. Ammo bu bilan jadidlik faqat davrning ma’lum bir qatlami vakillari harakati edi, degan xulosa chiqmaydi.

Bilamizki, bu harakatga Xiva xonligining bosh vaziri Islomxo‘ja, xonlikdagi eng yirik Xonqa bekligi hokimi Muhammad hoji Aminaddin o‘g‘li va boshqa turli mansab va maqomdagi shaxslar ham xayrixoh bo‘lgan. Turkistonda juda katta ta’sir kuchiga ega bo‘lgan mashhur birinchi o‘zbek generali Jo‘rabek Qalandar qori o‘g‘li ham jadid harakatining faol qo‘llovchilaridan bo‘lganini eslatib o‘tish joiz.

...1931-yilning qahraton qish kunlaridan birida “GPU-NKVD” birligi tomonidan hibsga olingan fuqaro Fansurulloh Xudoyorov muttasil qiynoqlar natijasida turmada vafot etadi va ortidan hech kim so‘rab kelmagani (aslida, vaqtida xabar qilishmagani) uchun hibsxona xodimlari tomonidan umumqabrga dafn qilinadi. O‘z davrida butun Turkiston o‘lkasida taniqli bo‘lgan qadim sulola vakilining sovet hibsxonasi rasmiy hujjatlarida rostakamiga ruscha ism-sharifda qayd qilingani ham davrning qo‘rqinch qiyofasini aks ettiradi.

Xo‘sh, nogoh hibsxonaga tashlangan va inson bolasi ko‘rmagan qiynoqlarga solinib, 59 yoshida jon taslim qilgan bu zot kim edi?

Tarixdan ma’lumki, Qo‘qon xoni Xudoyorxon Turkiston general-gubernatori fon Kaufman fitnasiga uchib, chor ma’murlari bilan o‘zaro sulhga rozi bo‘ladi. Toshkentda imzolangan sulh haqidagi xabar xondan oldin Qo‘qonga yetib boradi va azal-azaldan qullikni o‘z ixtiyori bilan bo‘yniga ilmagan vatanparvarlar xonga qarshi isyon ko‘taradi. Xalq qo‘zg‘oloniga xonning eng ishonchli ma’murlari va ikki o‘g‘li – Nasriddinbek va Muhammad Aminbek qo‘shiladi. Qo‘zg‘olonchilar Qo‘qonni egallagach, Xudoyorxon Xo‘jandga qochadi va Nasriddinbek xon deb e’lon qilinadi.

Bobomeros taxt qo‘ldan ketganini anglagan Xudoyorxon ikki xotini va uch nafar kichik o‘g‘li – O‘rmonbek, Fansurullohbek va Ibn Yaminbekni yoniga olib, fon Kaufmandan madad izlab Toshkentga keladi. Taxtsiz tirik xon hamisha mustamlakachi saltanat uchun xavf ekanini bilgan fon Kaufman Xudoyorxonni “Peterburgda oqposhsho hazratlari sizni kutmoqda”, degan yolg‘on bilan yo‘lga otlantiradi, ammo xon va uning oilasini Orenburgda to‘xtatishadi va uy qamog‘ida saqlashadi.

Xudoyorxon fitnaga aldanganini kech bo‘lsa-da anglaydi va ikki yildan so‘ng bir amallab surgundan qochib, Saudiya Arabistoniga yo‘l oladi. U haj ziyoratidan so‘ng yurtga qaytayotganida, Mozori Sharif shahrida vafot etadi. (Ayrim manbalarda o‘ldirilgani haqida ma’lumotlar keltirilgan).

Orenburgda qolgan Og‘acha oyim eri – sobiq xon vafotidan xabar topgach, Toshkentga qaytadi va shaharning Zanjirli mahallasida o‘g‘illari Fansurullohbek va O‘rmonbek bilan yashay boshlaydi. O‘rmonbek 1883-yili 18 yoshida kasallikdan vafot etadi.

Fansurullohbek dastlab rus-tuzem maktabida o‘qiydi, keyinchalik Eshonquli dodxoh madrasasida tahsil oladi. U madrasada tahsil olish jarayonida aruz ilmini chuqur o‘zlashtiradi va o‘zi ham g‘azal va muxammaslar yoza boshlaydi. Xisrav taxallusi (u o‘ziga bevaqt vafot etgan o‘g‘lining ismini taxallus qilib tanlagan) bilan ijod qilgan xonzodaning ko‘plab asarlari XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tartib berilgan qo‘lyozma va toshbosma bayozlarda uchraydi.

Otasi, aka-ukalari va o‘zining boshiga tushgan kulfatlar Fansurollohbekni yurtni mustaqil ko‘rish orzusida raiyatni ma’rifatga chorlab maydonga chiqqan jadidlarga yaqinlashtirgan bo‘lsa, ne ajab. Bir necha tilni mukammal bilgan, nasr va nazmda yaxshigina qalami bor Fansurollohbek ilk jadid matbuoti shakllanishida faol ishtirok etadi.

E’tiborlisi, 1907-yilda Munavvar qori noshir va muharrir sifatida jadidlarning o‘lkadagi ilk gazetalaridan biri – “Xurshid”ni chop qildira boshlaganida, unga qadrdon do‘sti Fansurollohbekni ham taklif qiladi. Yana bir ahamiyatli tomoni, shahzodaning inilari Muhammad Aminbek va Ibn Yaminbek “Turkiston viloyatining gazeti”da uzoq vaqt hamkorlik qilib, unda turli mazmundagi xabar va maqolalar bilan qatnashgan. Jadidlarning ilk gazetasi “Xurshid” millatni uyg‘otuvchi o‘tkir maqolalari bilan chor ma’murlari yuragiga vahima soladi va tezda yopiladi. Shundan so‘ng Fansurullohbek jadidlarning boshqa vaqtli nashrlarida ham faol qatnasha boshlaydi.

Xonzodaning jadidlarga qo‘shilgani va vaqtli matbuotda faolligi chor ma’murlari paytavasiga qurt tushirganki, Toshkent shahri hokimi Nikolay Malitskiy 1910-yilda Peterburgdagi maxfiy xizmat mahkamasiga ushbu mazmundagi “chaquv” yuborgan: *“Fansurullohbek Xudoyorxonov shubhali qarashlari uchun Turkistondan chiqib ketishga majbur qilingan Furqatning muxlisi, u bilan Toshkentdaligida bir necha bor uyida, keyin Jo‘rabekning Qorasuvdagi bog‘ida suhbatlar qurgan. Turkiston istiqlolini istaydigan shaxslar bilan bordi-keldi qiladi. Jadid matbuotida shoir va jurnalist sifatida qatnashib keladi. Yoshi 35-40 larda, tarbiyali, ma’lumoti oliy, shahzodalarga xos nazokatli. Ruscha gapiradi va yoza oladi, dunyoqarashi inqilobiy. Bir o‘g‘li va ikki qizi bor”.*

Fansurullohbek Furqatning yaqin do‘stlari qatorida bo‘lganini shoirning Yorkandda majburan vatan tutganida o‘zaro maktublar almashishgani, shoir Istanbulga sayohati vaqtida bitgan “Sabog‘a xitob” nomli she’riy maktubida 28 nafar hamfikr, maslakdosh do‘stlari qatorida unga atab 11 baytini bag‘ishlagani tasdiqlaydi. Bu she’riy maktub 1892-yilda “Turkiston viloyatining gazeti”da chop qilingan. Unda quyidagi go‘zal satrlar bor:

Begim, jonim, afandim Fansurulloh,
Zihi shahzodayi zul izzazul joh.
Na man tanho, ulus shahzodasidir,
Hama shahzodalar ozodasidir.
Kirib ko‘rgonda yer o‘pqil, duo qil,
Ko‘zingga xoki poyin to‘tiyo qil.

Lekin shoirning sho‘rolar davrida chop qilingan kitoblari, jumladan, “Tanlangan asarlar”iga ushbu baytlar “sig‘may qolgan”. Sababi, uning xonlar avlodidan ekanigina emas, balki jadid harakatining eng faollaridan biriga aylanganida edi.

Fansurullohbek 1930-yilda do‘sti va qadrdoni Munavvar qori Abdurashidxonov hibsga olingach, boshi uzra qora bulutlar paydo bo‘lganini sezadi va ism-sharifidan “bek” sifatini olib tashlashga majbur bo‘ladi. Qolaversa, 1906-yili ayni qish chillasida Qorasuvdagi uyida general Jo‘rabek kimlar tomonidan, nima maqsadda o‘ldirilganini yaxshi bilar, uni birinchi o‘zbek generali bilan faqat g‘oyalar emas, oilaviy rishtalar ham bog‘lab turardi. Fansurullohbek generalning qiziga uylangan, qaynog‘asi polkovnik Olloqulibek bilan yaqin birodarga aylangandi. 1916-yilgi mardikorlikka qarshi isyonlarga aloqador sifatida Olloqulibek ham ancha vaqt hibsda saqlanadi. U keyinchalik kuyoviga boshidan kechirgan voqealar haqida ko‘p mahram gurunglar bergan bo‘lishi hech shubhasizdir.

Qismatni qarangki, general hamda xon avlodiga aloqasi bor barcha ongli insonlar turli davrlarda qatag‘onga uchraydi. Polkovnik Olloqulibekni 1936-yilda noma’lum kimsalar o‘ldirib ketadi va otasining qotillari topilmagani kabi, o‘g‘liga tig‘ ko‘targanlar ham sirligicha qoladi.

Zamondoshlarining xotiralari, shuningdek, Shohruhbek Umarovning “Xudoyorxon avlodlari tarixi” kitobida eslatilishicha, Fansurullohbek Qo‘qon muxtoriyati tuzilishida ham faol qatnashgan, muxtoriyat qonga botirilgach uzlatga chekinib, vaqtli matbuotda ko‘rinmay qolgan.

Xudoyorxonning o‘n bir nafar farzandi bo‘lib, ular chor mustamlakasi va sovetlar davrida ko‘p azob-uqubatlarga duchor qilingan. Qizlari umrlari oxirigacha xon avlodidan ekanliklarini aytishdan qo‘rqib yashagan bo‘lsa, o‘g‘il farzandlarining barchasi fitna va qatag‘onlarga uchragan. Xonning o‘n bir farzandi orasida eng ko‘p umr ko‘rgani aynan Fansurullohbek – u 1931-yilda 59 yoshida halok bo‘lgan.

So‘nggi xon avlodlari orasida faqat Fansurullohbek she’riyatga oshno bo‘ldi va bir qator go‘zal g‘azallari, Navoiy va Fuzuliy g‘azallariga bitgan benazir muxammaslari bilan tanildi. Aynan she’riyatga ixlos uni jadidlarga yaqinlashtirdi, u butun umrini yurtni ozod ko‘rmoq orzusidagi g‘oyalarga baxshida qildi.

Xiva xonlari shajarasidan bo‘lgan shoir va musiqashunos Komil Xorazmiy ruhan jadidlarni qo‘llasa-da, jismonan ular tarafiga to‘liq o‘tmadi. Buning bevosita va bilvosita sabablari bor. Demak, Fansurullohbekni uch xonlikda hukm surgan sulola vakillari orasidan yetishib chiqqan yagona jadid xayrixohi deb bemalol ayta olamiz.

Ro‘zimboy HASAN

Boshlanishi 1-sahifada.

Shuning uchun ham, yuksak saviyada amalga oshirilgan tarjima muayyan xalqning madaniyati va tamaddunini jahon hamjamiyatiga munosib tarzda taqdim eta oladi.

Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari o‘zbek zamonaviy adabiyotida yozilgan ilk roman sifatida e’tirof etiladi.

Asar o‘zbek adabiyotida roman janri va tafakkurining boshlanishini namoyon etibgina qolmay, balki ijtimoiy va tarixiy mazmun ila g‘oyasi bilan hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Abdulla Qodiriy zamonaviy o‘zbek adabiyoti rivojlanish bosqichiga o‘tish jarayonida katta ta’sir ko‘rsatgan yetuk yozuvchi sifatida tanilgan. U jamiyatda sunnat va yangilanish o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar hamda axloqiy muammolar xalq hayotini qamrab olgan murakkab bir davrda ijod qilgan edi.

“O‘tkan kunlar” romani XIX asr ijtimoiy voqealarini tanqidiy va tahliliy nuqtayi nazardan yoritadi. Asar realistik uslubda hamda qahramonlarning ruhiy tahlili orqali yozilgan bo‘lib, nafaqat roman janridagi asar, balki muhim bo‘lgan ijtimoiy va tarixiy hujjat sifatida ham muhimligi e’tirof etiladi.

Mazkur roman bayon jihatidan o‘ziga xos uslubga ega bo‘lib, turli tillarga tarjima qilindi va shuhrati dunyo xalqlari o‘rtasida keng yoyildi. “O‘tkan kunlar” tojik, rus, ukrain, totor, ozarbayjon, qozoq, qoraqalpoq, turkman, uyg‘ur, nemis, arab va boshqa tillarga tarjima qilingan. Zikr etilganlardan tojik tilidagi tarjimasi birinchi bor adib Abdusalom Dehotiy tomonidan amalga oshirilgan, ammo turli sabablarga ko‘ra chop etilmagan. Keyinchalik, tajribali yozuvchi va tarjimon Istad Qosim tomonidan tarjima qilinib, “Ro‘zgori moziy” nomi bilan kitob shaklida chop etilgan va tojikzabon o‘quvchilar qo‘liga yetgan.

Endi esa, mazkur roman iste’dodli adib va malakali tarjimon Yunus Imomnazar tomonidan fors tiliga o‘girildi va “راگزور هتشزگ” (“Ro‘zgori guzashta”) nomi bilan Tehrondagi “Xiradgon” nashriyotida 490 sahifa hajmda, Suhaylo Yusufiy muharrirligida nashr etildi.

“O‘tkan kunlar” fors tilida



Aytish lozimki, asarning forsiyga tarjimasi oson ish emas, balki og‘ir va mashaqqatli faoliyat hisoblanadi. Yunus Imomnazar bu yo‘lda katta mehnat va matonat bilan o‘z maqsadiga erishgan. Hajm jihatidan asarning salmog‘i, har bir so‘z va iboraning zarofati va milliyligi barobarida asliy matn mazmunini saqlagan holda tarjima qilish majburiyati bu ishni yanada murakkablashtirgan.

Bu tarjima Yunus Imomnazarning o‘zbek adiblari ijodidan ilk tajribasi emas. U bundan oldin “Xirmani suxan” nomli uchta tarjima kitobini nashr qilgan bo‘lib, ular qirqdan ortiq mashhur o‘zbek yozuvchilarining qissa va hikoyalarini qamrab olgan.

Avvalo, mutarjim mazkur o‘girmalarni amalga oshirar ekan, zamonaviy o‘zbek nasriga chuqur kirib borgan va qardosh adiblarning uslubini mukammal o‘rgangan. Ushbu amaliyot “O‘tkan kunlar” romanini tarjima qilinishida asqotgan.

Ikkinchidan, ravshan ko‘rinib turibdiki, tilmoch fors zamonaviy nasrining uslubi, so‘z va iboralarning nozik jihatlarini teran his etgan holda o‘zbek maqol-zarbulmasallariga mos keladigan fors muodillarini o‘rinli qo‘llay bilgan. Asarning forsiy muhitida nashr etilishi o‘quvchiga zamonaviy o‘zbek adabiyotining shoh asarlaridan biri bilan tanishish imkonini beradi hamda xalqlar o‘rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlashda xizmat qiladi.

Ushbu tarjimaning muhim xususiyatlaridan biri kitobning tuzilishidir. Asar tarjimon tomonidan tayyorlangan adibning qisqacha hayotiy sharhi bilan boshlanadi. Bu qism alohida ahamiyatga ega, chunki Abdulla Qodiriyning hayoti va faoliyati bilan tanish bo‘lmagan forsiy o‘quvchi tarixiy va adabiy muhitni yaxshi ilg‘ay olmasligi mumkin.

Ma’lumki, Qodiriy tarixiy sanalarni alohida nazokat bilan ko‘rsatadi – yillarni qamariy-hijriy taqvimga muvofiq va oylarni shamsiy-hijriy taqvimga muvofiq keltiradi. Tarjimon esa ularni maxsus formula orqali avval Eronda keng qo‘llaniladigan shamsiy-hijriy yil hisobiga, so‘ngra esa milodiy yil hisobiga o‘tkazadi.

Tarjimaning tili ravon bo‘lib, o‘quvchining zavqiga mos keladi. Ko‘p holatlarda tarjimon so‘zma-so‘z tarjimadan o‘zini tiyib, bundan ko‘ra his-tuyg‘ular, ijtimoiy muhit va muallifning uslubini yetkazishga uringan. Bu usul “O‘tkan kunlar”ning ham lingvistik, ham estetik xususiyatlarini namoyon qiladi.

Yunus Imomnazarning tarjima mahorati nafaqat asl mazmunga sodiqlikda, balki adabiy va estetik fazoni yaratishda ham namoyon bo‘ladi, bu esa o‘quvchini qahramonlar va roman muhiti bilan ular yashagan vaqt va makonda birlashtiradi.

Quvonarli jihati shuki, “O‘tkan kunlar” romani mazkur tarjima orqali dunyo miqyosida kengroq tarqalib, muxlislari sonini oshiradi. Chunki fors tilida so‘zlaydiganlar nufusi millionlarni tashkil qiladi va dunyodagi ko‘p kitob mutolaa qiladigan xalqlar safiga kiradi.

Tarjima madaniy va adabiy ko‘prik bo‘lib, adabiyotning asosiy vazifasini – dil va madaniyatlarni bog‘lash hamda inson tafakkurini rivojlantirishdek oliy amalni bajaradi.

Dalershoh NE’MATOV,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universitetining
magistranti

NUQTAYI NAZAR



HALOLLIK VA ADOLAT eskirgan tushunchami?

“Barqaror jamiyat” deganda, odatda, iqtisodiy o‘sish, siyosiy tizimning mustahkamligi yoki xavfsizlik masalalari tilga olinadi. Biroq tarixiy tajriba va ijtimoiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bu omillar o‘z-o‘zidan barqarorlikni ta’minlamaydi. Iqtisodiy resurslar yetarli bo‘lgan, ammo ma’naviy me’yorlar zaiflashgan jamiyatlarda inqiroz, norozilik va ichki ziddiyatlar yuzaga kelgan holatlar kam emas.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, barqarorlik faqat tashqi tizimlar bilan emas, jamiyat a’zolarining o‘zaro munosabatlarini tartibga soluvchi ma’naviy ustunlar bilan ta’minlanadi. Bu ustunlar inson xulq-atvorini ichki nazorat orqali boshqaradi, ijtimoiy muhitda esa umumiy me’yorlarni shakllantiradi. Ana shunday asosiy ma’naviy tayanchlar orasida halollik va adolat alohida o‘rin tutadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti haqida so‘z ketar ekan, uning ma’naviy arxitekturasida aynan shu ikki qadriyatning o‘rnini qayta-qayta tahlil qilish zarur.

Halollik, avvalo, insonning ichki nazorati, ya’ni vijdoni bilan bog‘liq holatdir. U tashqi majburiyat bilan emas, ichki mas’uliyat bilan amal qiladi. Halol inson suiiste’molga moyil bo‘lmaydi, omonatga xiyonat qilmaydi, haqidan ortig‘ini o‘ziniki deb bilmaydi. Bu xususiyatlar yakka shaxs doirasida qolib ketmaydi: ular oila muhitiga, kasbiy munosabatlarga va oxir-oqibat, jamiyatning umumiy axloqiy iqlimiga ijobiy ta’sir qiladi. Halollik ijtimoiy muhit orqali shakllanadigan fazilatdir. U qo‘llab-quvvatlangan, rag‘batlantirilgan joyda kuchayadi, befarqlik hukm surgan muhitda esa so‘nib boradi.

Ajdodlarimiz halollikni faqat moliyaviy munosabatlar bilan cheklamagan. Ilmda xolislik, so‘zda rostgo‘ylik, niyatda poklik, xizmatda mas’uliyat alohida qadrlangan. Imom Buxoriy rivoyat qilgan hadislarda ham halol rizq va omonatdorlik ijtimoiy barqarorlikni ta’minlovchi eng muhim fazilatlar sifatida ta’kidlanadi.

Halollik shaxsning ichki dunyosiga daxldor bo‘lsa, adolat jamiyat hayotini tartibga soluvchi umumiy me’yor vazifasini bajaradi. Adolat ustuvor bo‘lgan joyda qonuniylik mustahkamlanadi, fuqarolik hamjihatligi shakllanadi, qonunga munosabat majburiyat emas, ehtiyojga aylanadi. Tarixda inqirozga uchragan davlatlarning aksariyatida iqtisodiy resurslardan ko‘ra adolat mezonlarining zaiflashishi hal qiluvchi omil bo‘lgan.

Adolatni faqat sud yoki jazo mexanizmi sifatida tushunish uning mazmunini cheklaydi. Aslida, u imkoniyatlarda nisbiy tenglik, mehnat natijasini xolis baholash, inson qadriga hurmat va ijtimoiy muvozanatni saqlash kabi keng tushunchalarni o‘z ichiga oladi. Alisher Navoiy ham o‘z ijodida adolatli boshqaruvni davlat barqarorligi va xalq farovonligi uchun asosiy shart sifatida qabul qiladi. Adolatsizlik esa ijtimoiy ziddiyat va muhim resurslarning zaiflashishiga olib borishini ta’kidlaydi.

Zamonaviy ijtimoiy fanlarda ham halollik va mas’uliyat jamiyat barqarorligining muhim omili sifatida qaraladi. Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zaro ishonch muhiti shakllangan, muomalada shaffoflik ustuvor bo‘lgan jamiyatlarda iqtisodiy o‘sish sur’atlari ham, ijtimoiy hamjihatlik darajasi ham yuqori bo‘ladi. Chunki bunday jamiyatlarda odamlar o‘z energiyasini himoyaga emas, hamkorlik va rivojga sarflaydi.

Shu ma’noda, halollik axloqiy fazilat bilan cheklanmaydigan ijtimoiy resursdir. U vaqtni tejaydi, kelishmovchiliklarga o‘rin qoldirmaydi, o‘zaro hamkorlikni osonlashtiradi. Adolat esa ushbu resursni to‘g‘ri taqsimlaydigan, uning samarali ishlashini ta’minlaydigan mexanizm vazifasini bajaradi. Biri ichki ma’naviy sog‘lomlikni, ikkinchisi esa tashqi muvozanatni ta’minlaydi.

Globallashuv davrida manfaatparastlik, tez keladigan foyda ortidan quvish, ma’naviy bo‘shliq kabi omillar aynan shu qadriyatlar uchun jiddiy sinov bo‘lib turibdi. Shu sababli, barqarorlikni ta’minlash faqat iqtisodiy islohotlar yoki huquqiy choralar bilan cheklanib qolmasligi lozim. Masalaga ma’naviy-ma’rifiy yondashuv, ayniqsa, yosh avlod ongida halollik va adolatni hayotiy me’yor sifatida shakllantirish hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Halollik va adolat hech qachon eskirmaydigan ijtimoiy zaruratdir. Bu ikki tushuncha kimgadir yuklanadigan shior yoki faqat davlat zimmasidagi vazifa emas. Ular har bir insonning kundalik qarorlarida, kasbiy faoliyatida va ijtimoiy munosabatlarida namoyon bo‘ladigan shaxsiy mas’uliyatdir. Jamiyat barqarorligi yuqoridan emas, insonning o‘z vijdonidan boshlanadi. Har kim o‘z burchini halol ado etsa, adolatni faqat talab qilmay, o‘zi ham unga rioya etsa, jamiyatdagi ko‘plab muammolar o‘z-o‘zidan yechim topadi.

Shu ma’noda, barqaror jamiyat qurish yo‘li uzoqdan emas – har birimizning vijdonimizdan, halol niyatimizdan va adolatli amalimizdan boshlanadi. Ana shu yo‘lni tanlasak, jamiyatimiz fozil, kelajagimiz porloq bo‘ladi.

Shovosil ZIYODOV,
Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro
ilmiy-tadqiqot
markazi direktori,
tarix fanlari doktori,
professor

KELAJAK OVOZI

JADIDLAR RUHI SAHNADA



Muhammad Yusuf nomidagi ijod maktabining “Aktyorlik mahorati” to‘garagi a’zolari tomonidan “Jadidlar” spektakli sahnalashtirildi. Unda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Cho‘lpon kabi ulug‘ ma’rifatparvarlarning hayoti, faoliyati va millat taqdiri yo‘lidagi fidokorona kurashlari badiiy aksini topgan.

Jadidlarning hurriyat, ilm-ma’rifat g‘oyalari yosh tomoshabinlar qalbiga ta’sirchan sahnalar orqali yetkazishga harakat qilindi. Ijrochilar hali o‘quvchi bo‘lsa-da, obrazlarni chuqur his eta oldi va uni ko‘rsatib berdi.

Sahna asarida yangi usuldagi ta’lim, maktab ochish va darsliklar yaratish, xalq ongini uyg‘otish yo‘lidagi sa’y-harakatlarga urg‘u berilgan. Bu esa yoshlarda jadidlik harakatining mazmun-mohiyati va uning tarixiy ahamiyati haqida aniq tasavvur shakllanishiga hissa qo‘shadi.

Yakunda ishtirokchilarning ijodiy izlanishlari, sahnadagi faolligi va mas’uliyati gulduros olqishlar bilan e’tirof etildi.

Aytish joizki, bunday tadbirlar ijod maktabi o‘quvchilarini san’at orqali tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish hamda milliy qadriyatlarga sadoqat ruhini mustahkamlashga xizmat qilajak.

Shohistaxon NURMATOVA

JAHON AYVONIDA

KELISHUV UCHUN TAHDID

AQSH prezidenti Donald Tramp Eron yadroviy kelishuvni qabul qilmasa, Tehronga qarshi harbiy zarba berilishi mumkinligi bilan tahdid qildi. Bu haqda u Truth Social ijtimoiy tarmog‘ida bayonot bergan.



Tramp Eronni imkon qadar tez muzokaralar stoliga o‘tirib, yadroviy qurolsiz, adolatli va teng huquqli bitim tuzishga chaqirgan. Uning so‘zlariga ko‘ra, muhlat tugab bormoqda va agar kelishuvga erishilmasa, keyingi zarba 2025-yilning iyunida o‘tkazilgan “Yarim tun bolg‘asi” operatsiyasi doirasidagi hujumlardan ham kuchliroq bo‘ladi. O‘sha paytda AQSH havo va dengiz kuchlari Eronning yadroviy obyektlariga zarba bergan edi.

OLTIN NARXI YANA OSHDI

Oltin narxi bir Troya unsiyasi uchun 5,5 ming dollardan oshib, tarixiy rekordni yangiladi. Bu haqda Bloomberg xabar berdi.



AQSH dollarining qadrsizlanishi, shuningdek, investorlarning obligatsiyalar va valyutalarni xavfli aktivlar deb baholab, oltinni afzal ko‘rayotgani fonida qimmatbaho metall narxi ketma-ket to‘qqiz kundirki rekordlar qayd etmoqda. Bir kun ichida oltin narxi 3,2 foizgacha oshdi. Somex birjasida bir unsiyasi 5584,3 dollardan baholandi.

BOLALARGA IJTIMOIY TARMOQLAR CHEKLOVI

Ozarbayjon Milliy Majlisida bolalarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini tartibga solish masalasi yuzasidan parlament eshituvini o‘tkazish tashabbusi ilgari surildi.



Ushbu taklif bilan deputat Xijran Huseynova o‘zi rahbarlik qilayotgan Oila, ayollar va bolalar masalalari qo‘mitasi yig‘ilishida chiqish qilgan. Majlis davomida “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi qonun loyihasi muhokama etilgan.

MIGRANTLAR ROSSIYANI TARK ETMOQDA



2026-yil boshiga kelib Rossiya hududida bo‘lgan xorijiy fuqarolar soni 5,7 million kishigacha kamaydi (10 foiz).

Bu haqda mamlakat Ichki ishlar vazirligi Migratsiya xizmatining tahliliy boshqarmasi boshlig‘i Aleksandr Perejoginga tayanib, “Ведомости” xabar berdi.

Perejoginning aytishicha, kamayish, avvalo, mamlakatdagi voyaga yetmagan xorijiy fuqarolar soni qariyb chorakka qisqargani bilan bog‘liq. 2025-yilda rus tilini bilish bo‘yicha testdan o‘tmagan migrant bolalarni Rossiya maktablariga qabul qilish taqiqlangan.

MUHOJIRLARGA YENGILLIK BERILDI



Ispaniya hukumati mamlakat hududida noqonuniy ravishda yashab kelayotgan 500 ming nafar muhojirga bir yillik qonuniy yashash va ishlash ruxsatnomasi berishni ma’lum qildi. Bu haqda NewsWeek xabar berdi.

Ma’lum qilinishicha, mazkur qaror Ispaniyaning mehnat bozorida ishchi kuchi tanqisligi hamda muhojirlarning katta qismi iqtisodiyotning asosiy sohalarida norasmiy ishlayotgani sabab qabul qilingan.

Boshlanishi 1-sahifada.

“BIR O‘CHIB SO‘NIB… YANA YONISH BOR”

Bu g‘oya XX asr boshlaridayoq Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan ilgari surilgan edi.

Shu tariqa “Ko‘mak” jamiyati tashkil etilib, 1922-yilning kuzida Turkistondan 70 dan ortiq talaba Germaniyaga tahsil olish uchun yuborildi. Qayd etish joizki, ularning 55 nafari Buxoro Xalq Respublikasidan edi. Bugun hikoya qilmoqchi qahramonimiz – muhandis Omonulla Nusratullayev ham aynan shu tashabbus doirasida xorijga yo‘llangan yoshlar safida edi.

O‘sha damda Berlindagi Oliy qishloq xo‘jalik maktabida o‘qiyotgan birinchi o‘zbek agronomi Abduvahob Murodiyning “Ko‘mak” uyushmasi boshliqlari otiga yo‘llagan xati jadid bobolarimizning ilmni qanchalar yuksak tutgani va uning yoshlar hayotiga ta’siri borasida tasavvur beradi. Unda, jumladan, shunday deyiladi: *“Ilm-maorifda Ovrupoda birinchi bo‘lgan Germaniya dorulfununlarida butun dunyodan, hatto tatarlardan o‘nlab, turklardan esa minglab talabalar bo‘lgani holda, bizning Turkistondan mendan boshqa talabaning bo‘lmasligi yuragimni parchalamoqda, boshqalarga hasad sezgisini uyg‘otmoqda edi. Mana sizlarning bu xayrlik muborak tashabbusingiz bir yildan beri kulmagan ko‘nglimni kuldirdi va ruhimga jon berdi”.*

Tilshunos va folklorshunos olim G‘ozi Yunus “Sharaflik ko‘mak” maqolasida bitganidek: *“…eski idora vaqtida ilm yo‘lida ko‘rgan to‘suqlarimiz to‘g‘risida ko‘p yozdiq, ko‘p qichqirdiq, nihoyat quruq shovqun-surondan foyda chiqmaslig‘ini tushunib amaliy suvratda ishka boshladiq”.* Mana shu amaliy suvrat qahramonimiz hayotida ko‘p jihatdan o‘z so‘zini aytdi...

Omonulla Nusratullayev 1906-yili Buxoro shahrida tug‘ilgan. Uning bolaligi va o‘smirlik yillari Turkistonda ijtimoiy hayot, ta’lim va tafakkur o‘zgarishlari avj olgan davrga to‘g‘ri keldi. U dastlab Buxoroda jadid maktabida, so‘ng madrasada ta’lim oldi. “Ko‘mak” tomonidan o‘qishga yuborilar chog‘i u hali o‘n olti yoshda edi. Germaniyada yetti yil (1922–1929) tahsil oldi. Oldiniga Leypsig shahridagi mashinasozlik maktabida o‘qidi. Berlinda to‘rt oylik til



kursini tamomlab, amaliy tajriba orttirish maqsadida Lyudvig-Le mashinasozlik zavodiga ishga joylashdi. Ushbu yillarda texnika va muhandislik fanlari barobarida, Yevropa ta’lim madaniyati, ish uslubi, fikrlash tarzini ham o‘zlashtirdi.

1929-yilda Omonulla Nusratullayev Germaniyadagi tahsilini tugatib, vatanga qaytdi. Bu davrda mamlakatda texnik sohalarni rivojlantirish masalasi kun tartibiga chiqqan, temir yo‘l xo‘jaligi, sanoat va ishlab chiqarish uchun bilimli kadrlarga ehtiyoj keskin ortgan edi. Xorijda mutaxassis sifatida shakllangan Nusratullayev aynan shu ehtiyoj nuqtayi nazaridan Toshkent Temir yo‘l transporti institutining ishchi fakultetiga o‘qituvchi sifatida jalb qilindi. U fanni o‘zi bevosita o‘zlashtirgan amaliy ko‘nikmalar bilan bog‘liq holda tushuntirardi, afsuski, keyinchalik aynan shu kasbiy ustunlik va mustaqil yondashuv uni “ishonchsiz kadr”ga chiqardi.

Bu orada qahramonimiz oila qurib, qizi Surayyo dunyoga keldi. Go‘yoki hayoti iziga tushgandek edi. Ammo barchasi ters o‘zgarib, yaqin-yaqingacha yuksak qadrlangan kasbiy mahorati, fikr va tajribasi shubha ostiga olindi. Yosh, bilimli mutaxassis hibsga olinib, Germaniyada o‘qigan yillarida go‘yo sovetlarga qarshi milliy tashkilotga a’zo bo‘lganlikda ayblandi.

Tergov materiallari shuni ko‘rsatadiki, Nusratullayev dastlabki so‘roqlarda bo‘yniga ilingan barcha aybni qat’iy rad etgan. Jumladan, 1937-yil 20-noyabrda va 14-dekabrda bergan ko‘rsatmalarida sovetlarga qarshi hech qanday josuslik tashkilotiga a’zo bo‘lmagani, o‘lkaga qaytishi paytida biron-bir maxfiy topshiriq olmaganini bildiradi. 1937-yil 18-dekabrdagi navbatdagi so‘roqda esa tergovchilarning Germaniyani yoqlab tashviqot olib borgani haqidagi dag‘dag‘ali so‘roqlariga javoban “Men buni inkor etaman, sovetlarga qarshi hech qanday tashviqot olib bormaganman”, deya ta’kidlaydi.

Shundan to‘rt kun o‘tib (hibsga olinganidan qariyb uch oy o‘tgach), tergov tugagani haqida protokol tuziladi. Biroq bu hujjat qahramonimiz taqdirida biror yaxshi o‘zgarish yasamaydi. Tergov yakunlangan bo‘lsa-da, mahbus ozod qilinmay, ish ochiq qoldiriladi. Omonulla Nusratullayev yana to‘qqiz oy davomida hech bir qaror-u asossiz, bosimlar ostida hibsda saqlanadi.

Ana shu uzoq sukutdan so‘ng, 1938-yil 13-sentyabrda o‘tkazilgan qo‘shimcha tergovda u shu chog‘gacha qat’iy rad etgan jamiki ayblarni “tasdiqlab” ko‘rsatma beradi. Nusratullayev go‘yo sovetlarga qarshi “Ozod Turkiston” nomli tashkilot mavjudligi, 1929-yili Germaniyadan vataniga qaytish arafasida shu tashkilotga a’zo bo‘lganini, shuningdek, bu tashkilotning maqsadi O‘zbekistonda sovet hokimiyatini ag‘darish, uni SSSRdan ajratib, burjua milliy davlatini barpo etishdan iborat ekanini bildiradi. Germaniyadan qaytgan har bir talabaga SSSRga qarshi, Germaniya manfaati uchun josuslik faoliyatini olib borish topshirilganiga ham “iqror” bo‘ladi.

Dastlabki tergovda ayblarni qat’iy rad etgan insonning keyinchalik butunlay boshqacha ko‘rsatma berishga majbur bo‘lishi o‘sha davr tergov amaliyotining asl mohiyatini ochib beradi. Bu jarayonda tergov oldindan shakllantirilgan qarorni rasmiylashtirish mexanizmi sifatida ishlagan, xolos.

Omonulla Nusratullayevga qarshi ayblovlar faqat tergov bayonnomalari bilan cheklanib qolmadi. Taassufki, tuhmatchi “guvohlar” ham topildi. Birga ishlagan ayrim hamkasblari uni Germaniyani maqtaganlikda, sovet tuzumini tanqid qilganlikda ayblab chiqishdi. Hibsdagi inson uchun bunday ayblovlarga javob berish, o‘zini himoya qilish imkoni deyarli mavjud emas edi. Tergov amaliyotida esa aynan shunday “ko‘rsatmalar” ishni kerakli yo‘nalishga burish uchun asos bo‘lib xizmat qilardi.

O‘sha yillarda qatag‘on ko‘lami qanchalar keng bo‘lganini Omonulla Nusratullayev bilan bog‘liq oilaviy misol ham yaqqol ko‘rsatadi. U kuyov bo‘lgan Ziyoxon eshon va Nisabuvi xonadonida Omonullaning o‘zidan tashqari yana ikki kuyov “xalq dushmani” sifatida hibsga olingan. Natijada, Sebzor dahasida istiqomat qilgan bu xonadonda bir paytning o‘zida uch qiz – Shohidaxon, Habibaxon va Tambatxon qo‘llarida go‘dak bilan beva qoladi. Uch bola tirik yetimga aylanadi.

Arxiv hujjatlari bilan ishlayotgan odamni ba’zan birgina qog‘oz ham larzaga soladi. Omonulla Nusratullayev ishida shunday ikki hujjat borki, ular qatag‘on davrida inson qadri qanchalar toptalganini hech qanday izohsiz ochib beradi. Qizi Surayyo qo‘lida otasidan yodgorlik sifatida ayni shu ikki hujjatgina qolgan edi.

Birinchisi, 1958-yil 28-oktyabrda berilgan o‘lim guvohnomasi. Biroq bu hujjatda o‘lim sababi ko‘rsatilishi shart bo‘lgan joy bo‘sh qoldirilgan. Guvohnomada o‘lim sababining ko‘rsatilmagani qatag‘on yillariga xos hujjat yuritish amaliyoti bilan bog‘liq va bunday holatlar repressiya qurbonlari ishlarida tez-tez uchraydi.

Ikkinchi hujjat esa uning gunohsiz ekanini tasdiqlovchi, kechiktirib chiqarilgan oqlov qarori. Bu ikki hujjatni yonma-yon qo‘yib o‘qisak, qatag‘on mohiyatini anglash qiyin emas: inson oldiniga yo‘q qilinadi, so‘ngra yillar o‘tib uning nomigina “qaytariladi”.

Qahramonimiz taqdiriga doir yana bir hujjat: rafiqasi Tambat Ziyoxonovaning SSSR Harbiy tribunaliga yo‘llagan arizasi. Uni o‘qirkanmiz, ayol erining nima sababdan qamalganini hanuz bilmasligini yozadi, tirik yo o‘lik ekanini daraklaydi, qayerda ekanini bot-bot so‘raydi. Arizaga 1958-yil 18-avgust sanasi bilan imzo chekilgan. Bu degani, oradan yigirma bir yil o‘tib, to‘rt yarim oylik qolgan qizi yigirma bir yoshga yetgan paytda ham oila o‘zi uchun biror aniq javob ololmagan. Bu holni faqat “davr fojiasi” deb qo‘yish mumkin emas, bu – insonni jisman va ma’nan yo‘q qilish siyosati edi.

Shu chog‘ shoir Cho‘lponning quyidagi satrlari xayoldan o‘tadi:

Yo‘q, o‘lim yo‘qdir!
Yolg‘iz bir o‘chib,
bir so‘nish bordir!
Bir o‘chib so‘nib…
yana yonish bor.

Akademik Naim Karimov aytmoqchi, “Vatan va xalq ozodligi, baxt-saodati yo‘lida shahid ketgan ajdodlarimiz uchun o‘lim yo‘q. Ularning xotirasi xalqimiz yodida hamisha yashaydi”.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

AZIZ XOTIRA



QATAG‘ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o‘tgan sonlarda).

Nuriddin Mahmudxo‘jayev – 1904-yili Burchmulla qishlog‘ida tug‘ilgan. Millati o‘zbek. Marg‘ilon shahar partiya qo‘mitasi kotibi, O‘zbekiston SSR Davlat rejalashtirish qo‘mitasi raisi lavozimlarida ishlagan. 1934-yilda Moskva shahridagi Butunittifoq Rejalashtirish akademiyasiga o‘qishga yuborilgan. “Milliy istiqlol” tashkiloti a’zoligida ayblanib, Ichki ishlar xalq komissarligi xodimlari tomonidan 1937-yil 21-noyabrda hibsga olingan.

Ayblov xulosasida, xalq xo‘jaligi uchun zararli bo‘lgan rejalarni tasdiqlashda to‘g‘ridan to‘g‘ri ishtirok etganlikda, Qishloq xo‘jaligi xalq komissariati tomonidan zararli ravishda qasddan kamaytirilgan rejalarni tasdiqlash orqali bir qancha hosildor yerlarni yaroqsiz holga keltirgani qayd etilgan. Tergov jarayonida chet el razvedkalari foydasiga josuslik qilgan deb topilgan.

U 1938-yil 4-oktyabrda SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining sayyor sessiyasida O‘zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 57-1, 63- va 67-moddalariga ko‘ra otuvga hukm qilingan. Jazo o‘sha kuni ijro etilgan.

Rustam Islomov – 1899-yili Toshkent shahrining Tarnovboshi mahallasida tavallud topgan. 1909–1917-yillarda xususiy do‘konda ishlagan. “Sho‘royi islom”, “Milliy ittihod” tashkiloti a’zosi. O‘zbekiston SSR Yer ishlari komissari bo‘lgan.

Tarixiy hujjatlarga ko‘ra, u “Bu yerda Moskva emas biz xo‘jayin” degan, markaz talabini rad etgan. “O‘ng trotskiychi” guruh a’zosi degan tamg‘a bosilgan. O‘zSSR Xalq komissarlari soveti raisi Fayzulla Xo‘jayev bosh bo‘lgan “O‘n sakkizlar” guruhi a’zosi sifatida O‘zSSR Jinoyat kodeksining 57-, 58-, 63-, 64-, 67-moddalari bilan ayblov qo‘yilib, SSSR Oliy sudi harbiy kollegiyasining Toshkentda 1938-yil 4-oktyabrdagi sayyor sessiyasida 52 kishi otuvga hukm qilingan. Hukm o‘sha kuniyoq ijro etilgan.

Tursunali Qalandarov – 1884-yilda Lenin rayoni Mozor qishlog‘ida tug‘ilgan. Qatag‘on davrida quloqqa tortilgan. 1930-yilgacha “Sho‘royi Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Hibsga olingunga qadar diniy xizmatchi, imom sifatida faoliyat yuritgan. Doimiy ravishda aholi orasida targ‘ibot olib borganlikda, urush va hukumatdagi o‘zgarish to‘g‘risida tashviqot ishlarini o‘tkazganlikda, SSSRdagi ocharchilik to‘g‘risida mish-mish tarqatganlikda ayblangan. U 2814-sonli ish bo‘yicha otuvga hukm etilgan.

Shahobiddin Tursunboyev – 1871-yili Namangan shahrida tug‘ilgan. Hibsga olinganga qadar imomlik qilgan. “Sho‘royi Islom”, “Muynil Islom” tashkiloti a’zosi bo‘lgan. Aholi orasida doimiy ravishda mag‘lubiyatchilik targ‘iboti olib borganlikda ayblanib, 10 yil mehnat tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1937-yil 18-sentyabrdan hisoblangan.

Abduhakim Hotamov – 1883-yili Samarqand shahrida tug‘ilgan. “Sho‘royi Islom” tashkilotining a’zosi bo‘lgan. Do‘kon mudiri bo‘lib ishlayotgan paytda hibsga olingan. Xaridorlar orasida ocharchilik to‘g‘risida mish-mishlar tarqatganlikda, oziq-ovqat mahsulotlarini sotishni atayin kechiktirganlikda ayblangan. 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Jazo muddati 1937-yil 11-sentyabrdan hisoblangan.

Azizbek MAHKAMOV,
tarix fanlari bo‘yicha
falsafa doktori

Nigoraxon AKBAROVA,
muzey ilmiy xodimasi

(Davomi kelgusi sonda).

EHTIROM

IMTIHON OLDIDAGI ODAM

El nazariga tushgan taniqli adabiyotshunos, filologiya fanlari doktori, professor Bahodir Karimni uning kitoblari orqali tanigan-man. Olimning kitoblaridan biriga so‘zboshi yozgan O‘zbekiston xalq yozuvchisi Tohir Malikning bir fikri e’tiborimni tortgan: “Kitobga jamlangan maqolalarni o‘qib chiqqach, men muallifning o‘zini “Imtihon oldidagi odam” deb atadim. Chunki o‘quvchiga bir gap aytmoqchi bo‘lgan har bir qalam ahli o‘zini imtihon-dagi talaba mavqeyida sezib, hayajonlanadi... Hech imtihon topshirganmisiz? – deb so‘rayapti kitob muallifi. Bugun imtihon topshirayotgan odam u sizdirsiz, balki mendirman. Baharnav, imtihondan omon o‘taylik”.



Olimning barcha asarlarini hushyor o‘qish odatimga aylangan. Yozganini idrok etolmay qolishdan cho‘chib turaman. Ya’ni, uning asarlarini o‘qish ham men uchun ma’lum ma’noda bir imtihondir. Chunki olim har bir asar tahliliga o‘ziga xos uslubda yondashadi. Bu, ayniqsa, buyuk adibimiz Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” asari yuzasidan olib borgan tadqiqotlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Umuman, olimning ushbu roman borasida amalga oshirgan tadqiqotlarining har biri chinakam kashfiyot, desak, mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Shunday tadqiqotlardan biri “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasining 2013-yil aprel oyida e’lon qilingan. “Boburnoma”dan “O‘tkan kunlar”ga” maqolasini o‘qib, undagi tiniq mushohadalardan hayratga tushganman. Nomlari zikr etilgan har ikki muhtasham asarning mazmun-mundarijasi o‘z zamonasining ruhoniy va ijtimoiy-siyosiy muhitida qiyoslanib, yuksak mahorat bilan tahlil etilganini ko‘rib, beixtiyor, Abdulla Qodiriy “Boburnoma”ni o‘qiy-o‘qiy yod olgan bo‘lsa kerak, degan tasavvurga borasiz.

Muallif botiniy va zohiriy qiyoslarini tadqiqotlari davomida quyidagicha bayon etadi: “Asrimiz avvalida Qozon matbaaxonalarida bosilgan va yurtimiz ziyolilari orasida mashhur bo‘lgan “Daloyil ul-hayrot” muallifi Muhammad ibn Sulaymon Jazuliy ismli kishidir. Kitob yozilishining qiziq bir tarixi va uni o‘qish sharti hamda odoblari bor. Birinchidan, komil bir mashoyixdan izn lozim. Ikkinchidan, uni o‘quvchi kishi yeyish-ichish, savdo-sotiq kabi amallarda haromdan hazar etishi kerak. Uchinchidan, o‘zi ham, kiyim-kechagi ham pok bo‘lib, uni o‘qishda xatoga yo‘l qo‘ymasligi lozim. To‘rtinchidan, tajvid (to‘g‘ri talaffuz) qoidalariga amal etishi hamda o‘qilayotgan duo va tasbehlarning ma’nosini imkoni boricha bilishi kerak. Bizningcha, umuman, shunga o‘xshash barcha talablarni Yusufbek hoji komil bir inson sifatida to‘la-to‘kis ado qilgan. Aks holda, duolar, tasbeh va salavotlardan tarkib topgan “Daloyil”ni o‘qishga Yusufbek hoji jazm etgan bo‘larmidi?

Abdulla Qodiriy bunday mo‘tabar kitoblar qadr-qimmatini yaxshi bilgan, albatta. Demak, kitob mohiyati ortidagi sir-sinoatni, umummohiyatni anglab olish o‘quvchi ko‘zi o‘ngida “Daloyil” o‘qiyotgan Yusufbek hoji ma’naviy-ruhiy dunyosining yanada bo‘rtib ko‘rinishiga sabab bo‘ladi. Chunonchi, Abdulla Qodiriy asarlarida mashhur kitoblar vositasida qahramonlarni yetiltirish, o‘sha ramz va ishoralar yordamida ularni tavsiflash usuli mavjud estetik hodisadir. Masalan, adibning Anvar va Ra’nodek jiddiy, Kalvak Mahzumga o‘xshash hajviy qahramonlari dunyosi ham kitoblarga daxldor holatda namoyon qilinadi. “O‘tkan kunlar”da esa Otabek “Boburnoma” o‘qiydi, Fuzuliyni varaqlaydi; Kumush “Fuzuliy yaxshi kitob”, deydi. Yusufbek hoji “Qur’on” va “Daloyil” mutolaasi bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu satrlar o‘z-o‘zidan bitilmagan. Aql aqldan quvvat olgan”.

Nazaringizdan o‘tgan uzun ko‘chirmamizdan murod olimning Bobur Mirzo va Abdulla Qodiriy asarlarini qiyoslashdagi mehnati va qiymatini ta’kid etishdir.

Professor Bahodir Karimov ulug‘ turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli tug‘ilgan zaminda tavallud topgani ko‘pchilikka ma’lum. Shu bois, hazrat Alisher Navoiy va hazrat Maxtumquli ma’nan uning ikki qo‘lini tutib turganday bo‘ladi.

Men tavallud topgan Nurota qishloqlarida qadimdan bobolarimiz Maxtumqulidan bayt aytmagan kun bo‘lmas edi. Safarqul bobomni qishlog‘imizda va tevarak-atrofda hech kim nomi bilan tutib chaqirmas, “Ertakchi bobo” deyishardi. Qish kunlari hamsoyalar-u shinavandalar uyimizga to‘planib, yarim kechalargacha bobomning ertaklarini tinglashardi. Bobom ayrim ertaklarini ikki-uch kunlab aytganlarini xotirlayman. U o‘zidan to‘qib, qo‘shib ketaverganini ancha yillardan keyin tushundim. Hamisha ertaklarining nihoyasi – gapning o‘roli Maxtumqulidan quyidagi baytlar bilan yakun topardi:

Har yigitning aslin bilay desangiz,
Ma’rakada o‘tirib-turishin ko‘ring.
Birov bilan yaqin bo‘lay desangiz,
Avval va’dasida turishin ko‘ring.

Bahodir Karimning “Maxtumquli – insoniyat shoiri” risolasini har gal takror o‘qiganimda, bolaligimdagi o‘sha yillar, o‘sha tuyg‘ular yodimga tushadi.

Olimning tuyg‘ulari barkamolligiga Maxtumqulining ruhiy nafasi sabab bo‘lsa, ajab emas, degan o‘yda yuraman. Olim tug‘ilgan eli Toshhovuzda 2022-yili bo‘lib o‘tgan o‘zbek va turkman xalqlari do‘stlik festivalida dil ta’rifi tiliga tushib, quyidagi baytini pafos bilan o‘qigan ekan:

“Maxtumquli – islomiyat shoiri,
Maxtumquli – insoniyat shoiri”.

Juda o‘rinli ta’rif!

Zukko va zabardast, ayni paytda g‘oyat mehnatkash va kamtarin olim azaldan ilm-u urfoni tutash qardosh o‘zbek va turkman xalqlarining ilm imtihonlaridan a’lo baholar bilan o‘tib kelayotgani oliymaqomidan dalolatdir.

Suyundik MUSTAFO,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
a’zosi

HAJV

UKAMNI OKASI

– Iya-iya, qo‘shni, bu kotta oshda nimaqib yuribtila? Ovvolgi duxim bo‘ganda san jipiriqqa bu dodaxo‘ja to‘yxonada pishirib qo‘yibdimi degan bo‘lardim-u, hozir zamon ko‘tarmaydi. Sani qaysi xumbosh miyasi chayqalib bu ochildasturxonga chaqiraqoldi? Yo pasI chalkashib, kalta ishtonla oshpazqalpoq bo‘pkettimi? He, okasini ukasi! Nima? Kim taklif qildi? Yo‘g‘e? Hali bu oshga taklifnomangam bormi? Yopiray! Kuch-u qayuga chiqibdi-de! Qatta ishlavossan o‘zi? Yana bitta qaytar! Shunaqayam gazeta bormi? “Darakchi”ni bilardim, “Bekajon”ni ko‘rganman, “Saodat”ga opoqim yozilardi, “Mushtum”ni to‘chniy varaqlaganman, inju rasmla chiqardi. Bir marta shu o‘zimizi G‘ulomni yasab chiqishgan: boshida to‘ppisini tegi semichka... ha, kungaboqar deysan, ikki qator o‘n so‘mlik, kulaverib Shukur polvonni belbog‘iday buralib qoppan.



Sanlaga davlat oylik beradimi? Yo‘g‘e? Qancha? Voy brat-ey! Aytdim, keyingi paytda jinsi shiming dazmollanadigan bo‘pqoldi. Manga qara, beganamassan, mahallamsan, odam tusi yuqib, talinkang qazi ko‘rib qopti, bitta yaxshilik qisang-chi. Ishtatingda tijorat bo‘yicha direktirmi, biznes shefmi, degan joyi yo‘mi? Shessekundda Koboltingni Bivaydi qilib, yog‘och stulingni aylanma kreslaga aylantirvoraman. Yolg‘oni bo‘lsa, bo‘ynimda Chust pichoq, joyim Toshturmani poygagi! Nima? “Avvalgi ishingiz nima bo‘ldi?” Qaysi birini aytasan? Ha endi, burgutni makoni tog‘, megajinniki botqoq, deganini eshitgandirsan? Yo‘q deysanmi? Ha, essizgina varanka, yuribsan-da, nonni nanna, kalishni vanna deb, ko‘ynagingni orqasini tutamlab tugib...

Mayli, sanga kichkina master klass, ham gazetangni gullatvorishimga ishonch bo‘lishi uchun oxirgi tadbirkorligimni aytay. Ochig‘i, do‘stdan dushman ko‘p, qadamingni poylagan laychalar Chinnibozordagi sopol-mushukdan ko‘p. O‘lmasang, ko‘raverasan, ukam.

Xullas, bir kuni xuddi bugungi oshga o‘xshagan davrada o‘tirib, atrofga mundo qarasam, zo‘r tesha iskamagan biznes ko‘rib qoldim. Qanaqa biznes deb, so‘ramaysanmi? Mana, san, hozir ichkarida bir soat qappayib o‘tirib, yarim lagan lazer oshni po‘killatib, do‘rdaygan labingni yog‘lab chiqding xolos. Boshqa foyda-moyda topganing yo‘q. Mani fantaziyam xitoyni lazer miltig‘idan tez: shohona dasturxondan naq ikkitasini it ham hidlamadi, birov ustolga ketini tegizmadi. Uvolmi? Uvol! “Charaq” etib kompyuterim ishlab ketti-yu. O‘zimga o‘zim beshni tashlab, shu zahoti natijaga toychoqni burdim. Biznes paysalni yoqtirmaydi, mayna haykalni, degan maqol bor, eshitgandirsan? Ha, o‘la, yurovur qog‘oz popkani qo‘ltiqlab, qaydan tekin oshga qog‘oz kepqolarkan deb. Uzr-a... Anaqa... Nobodosiga birga-birga ishlashib qolsak, bunaqa muomala qimiyman, cho‘chima. Hurmating joyida, qiymating qoida bo‘ladi. Tashla, osh yegan qo‘lingni! Ha, okangni ukasi!

Keyin-chi deysanmi? Ha, keyin srazi ishga kirishdim. Eng kotta vachach mehmonxona bor-u, otini aytib bo‘maydi, o‘shanga g‘izilladim. Rahbarini topib, atay o‘richchaladim, bilasan-u, armiyada naq Djambulda xizmatni urganmiz. Iya, nega iljayasan, nima devossan, kere bo‘sa, uch oyda o‘risvoylaringni “Anjan polka”ga o‘ynatib, postovoyni go‘rn turbasini surnay qildirvorganman.

Ha, hozir o‘richcha gapirsang ko‘pchilik tushunmaydi, i hurmat qiladi, bir balosi bor deb o‘ylaydi. Xullas, haligi kottakon darrov rejamga ko‘ndi, foydani belidan bukadigan bo‘ldik. Muncha shoshmasang, shoshgan qiz yo‘ldoshga, shoshgan yigit nahorga oshga yolchimiydi, deganini eshitmaganmisan? Ha, kul, kul-a!

Xo‘p, keyin haligi to‘yxonaga uchdim. Tez-tez ko‘rgani uchunmi, xo‘jayin tutingan bojamday iliq kutib oldi, unga o‘zimizni tilda lo‘nda qilib ifodalab qo‘yaqoldim. Biram xursand, bachchag‘ar! Bo‘ldi, bugundan boshlab qiyomatli oka-uka bo‘lamiz deydi. Iya, o‘zing xom kallang bilan... uzr, boshingiz bilan tafakkur qiling: to‘yxonaga hakka nonushta qilmasdan burun, kazo-kazolar ko‘z oldida qatorlashib xorijiy mehmonlar savlat purkab kirib kevotti. To‘yxonaga obro‘mi? To‘y egasiga-chi? Ha, ha, boshingizga barakalla! Anavi turist jonivorlar-chi? Ular tanga topganday baxtli. Birinchidan, bizani to‘yla ularga ekzotika – tomosha, ikkinchidan, tong saharlab xohlaganingcha bo‘kib yebich. Asosiysi, el-yurtimiz hurmati oshadimi? Anavilar to‘yimizni, dasturxonni ko‘rib, bular niho-o-yatda to‘kin yasharkan, deb o‘ylab qoladimi? Uning ustiga mehmondo‘st ekan deb, qolgan-qutgan aymoqlarini buyoqqa taklif qiladimi: jannatni filialini topib oldik, yoppa kelaver, deb. Ana investitsiya! Ana savob! Ana urf-odat! Buyog‘i ozgina choychaqayam bor. Turistlardan bir cho‘qim, to‘yxonadan ikki cho‘qim, to‘ychidan uch cho‘qimgina olaman. Hamma rozi, hamma shod. Yana nima qiberiy?

Yo‘q, aytdim-u, oshxonada pazanda, tevarakda gazanda ko‘p. Qaysi bir iplos shipshitganmi, yo tasodifan palakat urdimi, endigina biznesim uchinchi yilga o‘rmalab, to‘rtinchi uchastkamga unnayotgan paytim “paq” etib, misim chiqdi. Man qaynag‘amga ishonib, to‘y kimiki deb surishtirmay, yapon mehmonlarni “Barakasaroy”ga ro‘para qivoribman. Osh bervotgan kotta ana shu sayohatchilarni ministriga quda ekan. Bo‘ldi janjal, bo‘ldi tomosha! Sal qoldi o‘zim naryoqqa “turist” bo‘pketishimga. Yaxshiyam avvalgi guvohlar, sayyohlar demoqchiman, uy-uyiga, taka to‘yiga tarqab, gumdon bo‘p ketgan ekan, savol-so‘roqqa chaqirisholmadi. Chaqirgandayam nima derdi? O‘zi umuman, buni nimasi jinoyat? Tadbirkorlik shumasmi, ukam?

Ha, mayli, bundayam bir hikmat bordir. Gap bunday, agar ishtating bo‘lmasa, och, yo‘q bo‘lsa, shartnoma qil, gazetingni Addis-Abeba-yu, Shimoliy Butangacha yoyib, obunasiga habashlarni o‘chirit qip tashayman! Mani bilasan-u, uzr, bilasiz-u, xo‘jayin. Yoki, sira iloji bo‘lmasa, mana shu temani gazetingizda ko‘tarib chiqing, zoramora tasadduqlarga aql kirib, biznesimizani yorug‘ yo‘li ochilib ketsa. Axir, bizam savob deb yuribmiz-u, hech kim o‘z shaxsiy qornini, ichki cho‘nchagini o‘ylavotgani yo‘g‘-u, tushundingiz-a, ha, okangizni ukaxoni!

Suhbatga guvoh:
Mulla XUNOB

TILBILIM



Chingiz Aytmatovning “manqurt”ini hamma biladi. Qadimda qullarning taqir boshiga tuyaning xom terisini qisib qoplashgan va ularni jazirama oftob tig‘ida o‘tirg‘izib qo‘yishgan, teri qurigach, qulning boshini qattiq qisgan. Bu jazo miyani ishdan chiqarib, qulning xotirasini butunlay o‘ldirgan.

Men bu so‘z xususida to‘xtalishimga uning tub ma’nosini bilishdan ham avval boshqa bir sabab bor. “Kuntug‘mish” dostonida shunday joyi bor. Podsho Kuntug‘mish bilan Xolbekani qatl qilmoqchi bo‘lib turganda vazir unga quyidagicha maslahat soladi: *“Ey, taqsir podshohim, osib o‘ldirdingiz – ko‘rdik, bosib o‘ldirdingiz – ko‘rdik, to‘pga solib otdingiz – ko‘rdik. Bu beadablarga shunday jazo buyuramizki, bir tuv tuyani olib kelib so‘ysangiz, terisini tulup qilib olsangiz, xom teriga ikkovini zich qilib tiqsangiz, bir asov baytalning dumiga taqib, cho‘l jaziraga haydab yuborsangiz, bularning o‘ligini g‘ajir-quzg‘unlar yeb ketsa”. Shundan so‘ng baxshi voqeani shunday hikoya qiladi: “Podsho buyurib, bir tuv tuyani tulup qilib so‘yib, Kuntug‘mish bilan Xolbekani zich qilib, xom teriga tiqib, darvozadan chiqarib, bir asovning dumiga taqib, bir cho‘l jaziraga qaratib, ko‘p odam chuvlab hurkitib, haydab yubordi. Asov baytal hurkib, ikkovini sudrab, cho‘lga uloqib ketdi. Baytalning dumi bir tol, yarim tol uzila-uzila olti kun deganda tulup bir yerda tushib qoldi. Xom teri oftobning harorati bilan qurib, chunon qisdiki, temirday berkitdi”.*

Men bu o‘rinda Aytmatov unday yozgan, Jumanbulbulda munday deb izohlab o‘tirmayman. Ikki holatni muqoyasa qilib, o‘quvchi o‘zi xulosaga keladi. “Xom teri oftobning harorati bilan qurib, chunon qisdiki, temirday berkitdi” degan jumlaning o‘ziyoq buyuk Aytmatovning turkiy xalqlar tarixiy ildizlarini nechog‘li yaxshi bilganini dalillaydi.

Endi manqurt so‘zi tub ma’nosi haqida ikki og‘iz so‘z. Vikipediyada qadimgi turkiy tilda *“aqlsiz, tentak, aqldan ozgan” ma’nosini bildirgan munqul so‘zi yoki qozoq tilidagi “o‘zini boshqarolmaslik, aqldan ozish, xotirasizlik”* mazmunidagi *меңu* so‘zi va *“quritilgan”* ma’nosidagi qurt so‘zi *manqurt* so‘ziga asos bo‘lgan degan taxmin aytilgan.


Mahmud Koshg‘ariyda *mundug‘ – ahmoq, mundi – aqldan ozdi* ma’nosida kelgan. “At-tuhfa” lug‘atida befahmlik *моң* so‘zi bilan ifodalangan. Lekin bular manqurt so‘zining tub ildizini to‘liq dalillay olmaydi, faraz uyg‘otadi, xolos.

Eshqobil SHUKUR

TARMOQLARDA NIMA GAP?

HEY, LUIZA! MIYANGIZNI BOSHQARING!





ИМКОНИЯТЛАР ЧЕКСИЗ!

Юз йил олдин турмушга чиқмаган аёл фақат биров-ровнинг уйида хизматкор бўлиши мумкин эди ва унга одатда маош тўланмаган. Унинг на ижтимоий мавқеси, на овоз бериш ҳуқуқи бор эди ва у ҳаётни шундай борича қабул қилиши керак эди. Ўша кунларда аёлга ўзи учун қулай ҳаётни таъминлаши учун, баъзан эса омон қолиши учун эркак керак эди. Ҳатто эллик йил олдин турмушга чиқмаган аёлнинг танлови кам эди.

Бугунги кунда турмушга чиқмаган аёл чексиз имкониятларга эга. У ўзининг қобилиятлари ва ўзига бўлган ишончи билан имкони борича юқорига кўтарилиши мумкин. У саёҳат қилиши, иш ташлаши, яхши пул топиши, кўп дўстлар орттириши ва ҳаётда ҳар томонлама ўзини кўрсатиши мумкин. Замонавий аёл турмушга чиқмасдан бола туғиши мумкин ва бу унинг жамиятдаги мавқеига ҳеч қандай путур етказмайди. Кўплаб таниқли актрисалар, дизайнерлар ва бошқа машҳурлар шундай қилишади. Аёл ўз турмуш тарзини ўзи учун қулай қилиб яратиши мумкин.

Кўпчилик аёлларнинг ёнларида эркак йўқлигидан нолиб, ҳали ҳам йиғлаб юришлари жуда ачинарли ҳол! Агар эримиз ёки севгилимиз бўлмаса, ўзимиз-

Maktabingiz kutubxonasida shunday kitoblar bo‘lsa, olib tashlang. Bu nima ahmoqlik, kim bunday kitoblarni tarjima qilib tarqatyapti?

Shohida ARIPOVA
Facebook

Abdulla A’ZAM:
Tarjima va nashr qilganlar – zararkunanda.

* * *

Zuhra OCHILOVA:
Tavba. Bo‘lar-bo‘lmas kitoblarni o‘qimagan ma’qul. Shunaqa bemaza kitoblar ham inson ongini buzuvchi “virus”. O‘zimizni sharqona axloqimizga oid kitoblarni chop qilishni ko‘paytirish lozim.

Avvallari bola yoshiga qarab kitob mazmuni belgilanib chop etilardi. Hozir tayinsiz kitoblar biznes uchun chop qilinadi, tarjimonni farosatlisi kamayib ketdi chog‘i.

* * *

Zikrilla MAMATOV:
Kitobxonlik (saviyali va estetik yuksak kitob o‘qishni nazarda tutyapman) davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan shu zamonda bunday tuturiqsiz, bema’ni to‘qimalarni, ayniqsa, bolalarga tiqishtirish ma’naviy qo‘poruvchilikdir. Bunga qarshi jamiyat birlashib kurashishi kerak!

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 541
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 527
Lotin yozuvida – 12 014
Media kuzatuvchilar – 78 508
Buyurtma: G – 140.
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov
Navbatchi muharrir: Muhayyo Rustamova
Sahifalovchilar: Erkin Yodgorov, Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy
Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 20:30

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:
O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI
“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDIи